

Mavzu: *Qo`qon xonligida xotin-qizlarning jamiyat hayotida tutgan roli*

KIRISH

I-Bob. Qo`qon xonligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

1.1. Qo`qon xonligining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ayollarning tutgan roli.....
.....

1.2. Xonlikda ayollar adabiy muhitining vujudga kelishi.....

II-Bob. Qo`qon xonligida ayollarning boshqaruvdagi o`rni

2.1. Davlat boshqaruvida malikalarning tutgan roli.....

2.2. Ziyoli ayollarning xonlik boshqaruviga qo`shgan xissalari...

III-Bob. Qo`qon xonligida xotin-qizlarning o`qitish tizimi

3.1. Xonlik davrida ayollarning o`qitilishi.....

3.2. O`zbekistonda bugungi kunda xotin-qizlarga berilayotgan e`tibor.....

Xulosa.....
.....

Foydalanilgan adabiyotlar
ro'yhati.....

Ilovalar.....
.....

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: Mustaqillikka erishganimizdan so'ng yurtimizda juda ko'plab o'zgarishlar sodir bo'ldi. Yurtimizda bo'layotgan o'zgarishlarni dunyo mamlakatlari tomonidan e'tirof etilayotgani yurtimizga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytirmoqda. Mustaqil O'zbekistonning uzoq va yaqin o'tmishiga bo'lgan qiziqish ortib borayotganligi davrimizning o'ziga xos hususiyatidir. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek, "Mustaqillik yillarin o'z o'tmishimizni o'z madaniyatimizni, xolisona bilib olish davridir".¹

O'zbekiston mustaqillikka erishgach yurtimiz tarixini xolisona o'rganish imkoniyati yaratildi. Bu borada davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan ham bir qator ishlar olib borilmoqda. Xususan davlatimiz rahbari yurtimizdagi muqaddas qadamjolarini topish, borlarini qayta tamirlash va ularni obod qilish

¹ I.A.Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T., "O'zbekiston", 1995, 18-b.

borasida namuna bo'ladigan ishlarni olib bormoqdalar. "Qo`qon xonligida xotin-qizlarning jamiyat hayotida tutgan roli" mavzusini o`rganish bugungi kunning dolzarb mavzularida biri bo`lib kelmoqda. Xonliklar davrida xotin-qizlarning ijtimoiy hayotda tutgan roli va ularni bu davrda qay tarzda hayot kechirganliklari. Qo`qon xonligida vujudga kelgan adabiy muhit va unda shoiralarning ishtirokini o`rganish bu mavzuning dolzarbligini anglatadi. Qo`qon xonligining buyuk malikasi Nodira Begim uning hayot yo`li va bu ayolning davlat boshqaruviga qo`shgan xissalari va xonlik adabiy muhitadgi o`rni, ayollarning o`qitilishiga oid olib borgan ishlari magistrlik dissertatsiyamizning asosini tashkil qiladi. Bugun yurtimizda xotin-qizlar masalasi davlat ahamiyati darajasiga ko`tarilgan. Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yil 19-mart kuni e`lon qilingan besh tashabbusining beshinchi qismi ham xotin-qizlarni ish bilan ta`minlash deb aytib o`tiladi. Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda yashayotgan ayollarga berilayotgan e`tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Yurtimiz ayollarining o`tmish tariximizda olib borgan jamoatchilik ishlari va talim tizimi, ayniqsa, xotin-qizlarni o`qitishga qo`shgan xissalarini bugungi kun ayoli uchun namuna qilib ko`rsatilsa, hozirda ham talim tizimiga joriy qilish asosiy masala qilib ko`rsatish mumkin. Shu jihatdan bu magistrlik dissertatsiyamizni bugungi ishning asosiy maqsadi qilib oldik.

Magistrlik dissertatsiyasining davriyligi:

Fargo`na vodiysining Qo`qon shahri haqidagi dastlabki ma`lumotlar X asrdan boshlab uchraydi. XII asrda mo`g`ullar bu shaharni vayron qilishgan. Hozirgi shaharga esa 1732-yilda asos solingan. Fusunkor

Farg`ona vodiysining kiraverishida joylashgan Qo`qon shahri tezda o`zini tiklab oladi. Biz mana shu yurtimizning eng qadimgi shaharlaridan biri bo`lgan Qo`qon shahri o`zining nafaqat qadimiyligi bilan balki vatanimiz adabiyotiga qo`shgan xissasi yani adabiy muhiti bilan ham ajralib turadi. “Qo`qon xonligida ayollarning jamiyat hayotida tutgan roli” mavzuidagi magistrlik dissertatsiyamizning amaliy ahamiyati Qoqon xonligida ayollarning ijtimoiy hayotdagi o`rni, Qo`qon xonligi adabiy muhitiga qo`shgan xissalari, ayollarning mutaasiblik davrida ularning o`qitish uchun qilgan ishlari, shoirlar hayoti bugungi ishimizning asosiy o`rganilish darajasini bildiradi. Magistrlik dissertatsiyamizning davriyligi Qo`qon xonligi tashkil topganida ya`ni 1710-yildan to 1876-yil 19-fevraligacha yani Qo`qon xonligi Podsho Rossiyasi tugatilguniga qadar bu xonlikda ayollarning hayoti va ularning o`qitilishi jarayonlari yoritiladi.

Mavzuning o`rganilish darajasi:

Magistrlik dissertatsiyasi sifatida ko`rilayotgan bu mavzu Qo`qon xonligi tarixiy tadqiqoti sifatida xonlikda ayollarning hayoti va ularning o`qitilishi, sahovatpesha malikalar, ularning davlat boshqaruvidagi ahamiyati kam o`rganilgan mavzulardan biri sanaladi.

Bugungi kunda yosh avlodni tarixni chuqur o`rganmasdan turib kelajak yo`q shiori ostida tarbiyalash, tarixiy ongni shakllantirish borasidagi ma`naviy-marifiy ishlarni rivojlantirishda Qo`qon xonligida yashagan ziyoliy ayollarining yozib qoldirgan she`r va asarlari biz uchun qimmatlidir.

Umuman Qo`qon xonligi va shu nom bilan ataluvchi davlat haqida yaratilgan mahalliy tarixchilarning asarlari 30 dan oshadi.²

Keng ko`lamli bu manbalarda xonlikning siyosiy tarixi, madaniyati uning turli hududlarida yuz bergan voqealar tafsiloti bayon qilingan. Qo`qon tarixchilari maktabi va ularning namoyondalari asarlariga bag`ishlangan manbalar haligacha yetarli darajada yoritilmagan. Xususan biz yoritayotgan “Qo`qon xonligida xotin-qizlarning jamiyat hayotida tutgan roli” mavzusi ham tadqiqotchi olimlar tomonidan o`rganilishi zarur bo`lgan mavzulardan biri sanaladi.

Birinchi “Qo`qonshunos” olimlarimiz Qo`qon tarixi va madaniyatiga doir asarlar yozgan mahalliy tarixchilar hisoblanadi. Ular turli manbalardan voqea hodisa ishtirokchilari bergan ma`lumotlardan foydalanib yaratganliklari bois ahamiyatli hisoblanadi.

Keyinchalik Turkistonlik va Rossiyalik olimlardan R.R.Totinin, D.N.Romanovskiy, R.Xanikov, A.Makiyev, V. Velyaminov-Zernov, V.V.Grigorov, A.P.Xortoshxin, N.Tetrovskiy, A.F.Midendorf, A.Fedrenko, A.Kun hamda xorijlik olimlarning bazilari mahalliy mualliflari asarlaridan ham foydalanib, tadqiqotlar yaratganlar. So`ngra A.Semyonov, R.N.Nabiyev, A.P.Qayumov, A.O`rinboyev, P.P.Ivanov, H.Bobobekov, R.K.Bekmaxonov, X.G`.G`ulomova, I.Alimov, Is`hoqxon To`ra Ibrat va boshqalar o`z asarlarida xonlikning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti yoritilgan.

Bugungi kunda Qo`qon tarixchilari maktabining asoschilaridan biri sanalmish Muhammad Hakimxon To`raning “Muntaxab ut-tavorix”³

² Mirzo Olim Mahdum Hoji. Tarixi Turkiston, T.; “Yangi asr avlodi”, 2008. 4-b.

asari, Tajir Xo`qandiyning “G`aroyib-u sipoh”⁴, Mirzo Olim Mahdum Hojining “Tarixi Turkiston”⁵, I.Alimov “Qo`qon xonligi masjid madrasalar tarixi”<sup>6</sup>, Is`hoqxon To`ra Ibratning “Farg`ona tarixi”⁷, X.Bobobekov “Qo`qon tarixi”<sup>8</sup>, To`xtasin Jalolov “O`zbek shoiralari”<sup>9</sup>, R.Orzibekov “O`zbek adabiyoti tarixi”¹⁰ nomli asarlar chop qilingan. Bu davrda ayollarning ijtimoiy hayoti va ular tomonidan olib borilgan ishlari tarixchilarimiz tomonidan o`rganilgan bo`lib, xususan, H.Bobobekovning “Qo`qon tarixi” asarida xonlikda vujudga kelgan adabiy muhit va unga asos solgan hukmdorlar hayoti, bu davrda ijod qilgan shoiralar hayoti va talim tizimi yoritilgan. Bundan tashqari I.Alimov tomonidan “Qo`qon xonligi masjid, madrasalari tarixi” asarida xonlikdagi masjid, madrasalari tarixi yoritilgan. M. O. Alixojiyevning “Qo`qon xonligida talim tizimi va unda vaqf mulklarining o`rni” nomli asarida Qo`qon xonligidagi talim tizimi va o`qitilish tizimi haqida ma`lumotlar keltirilgan. Qo`qon xonligining qisqacha tarixi (Кратная история Кокандского Ханства)б Ibratning “Tarixi Farg`ona”, Xudoyorxon zodaning “Anjum at-tavorix” nomli

³ Dushanbe 1984-1985

⁴ Xo`jand 1991

⁵ Qarshi 1991

⁶ I.Alimov. Qo`qon xonligi madrasa, maktablartarixi. T.; 2017

⁷ Isoqxon To`ra Ibrat,. Farg`ona tarixi. T.; “Ma`naviyat”, 2005.

⁸ Bobobekov X. Qo`qon tarixi. T.; “Fan”, 1996.

⁹ To`xtasin Jalolov. O`zbek shoiralari.

¹⁰ Orzibekov R. O`zbek adabiyoti tarixi, T.; 2006

asarlarda xonlikdagi ayollarning jamiyatda tutgan mavqelari haqida soʻz boradi.

Ishning asosiy maqsadi juda koʻplab materiallar va ilmiy adabiyotlar hamda eng yangi maʼlumotlar tayangan holda mavjud oldimizda turgan muommoni tarixiy yoritishdan iborat. Yuqorida taʼkidlanayotgan maʼlumotlarga tayanib, shuni aytish mumkinki, Qoʻqon xonligi oʻzining ijtimoiy-siyosiy va madaniy-iqtisodiy rivojlanish bosqichida turli xususiyatlar va tarixiy qonuniyatlarga ega boʻlgan.

Qoʻqon xonligi siyosiy tarixidagi koʻplab voqealar xonlik hududida yashagan xalqlarning ichki hayotida ham uning atrofidagi xalqlar va mamlakatlar hayotida ham ulkan iz qoldirdi.

Ushbu oʻrinda Qoʻqon xonligida yuz bergan bunday siyosiy oʻzgarishlar ijtimoiy hayot xususan, xonlik ayollarining turmush tarzida ham oʻziga hos oʻzgarishlar roʻy bergan.

Tadqiqotning obekti: Qoʻqon xonligida xotin-qizlarning jamiyat hayotida tutgan roli va ularning jamiyat hayotida ayollarning mavqei, adabiy muhitining vujudga kelishi masalalarini oʻrganish tadqiqot ishining obekti hisblanadi.

Tadqiqotning predmeti: Qoʻqon xonligida ayollarning tutgan roli, malikalarning davlat boshqaruviga qoʻshgan xissalari, sahovatpeshalik faoliyatlari, maktab talimini izchil oʻrganish va tahlil qilish tadqiqotning predmeti qilib belgiladik.

Tadqiqot ishining maqsadi: Mazkur Magistrlik dissertatsiyasida Qo`qon xonligida xotin-qizlarning jamiyat hayotida tutgan rolini yoritishda quyidagilarni o`z oldimizga vazifa qilib qo`ydik. Bular:

1. Xonlikda ayollarning turmush tarzini o`rganish.
2. Qo`qon xonligi adabiy muhitining vujudga kelishini yoritish.
3. Xonlikda malikalarning davlat boshqaruviga qo`shgan xissalarini yoritish.
4. XIX asrda Qo`qon xonligi madaniy hayotini tahlil qilish.
5. Xonlikda ayollarning o`qitilishini va bugungi kunda yurtimizda xotin-qizlar talimi, ularga berilayotgan e`tiborni xonlik davri bilan qiyosiy solishtirish o`rganish.

Bu mavzularni yoritishda yuqorida ko`rsatib o`tilgan mualliflarning asarlaridan foydalanildi.

Tadqiqot nazariy metodologik asoslari: O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sahvkat Mirziyoyev asarlarida tarixni o`rganish borasida bildirgan fikrlari, milliy g`oya va mafkuraning eng muhim jihatlari, milliy davlatchiligimiz va ma`naviy merosimizni qayta tiklash borasidagi fikrlari, xotin-qizlar va ularni qo`llab-quvvatlash borasidagi asarlari va ularda ko`tarilgan go`yalar tashkil qiladi.

Ishning amaliy ahamiyati: sifatida ko`rsatib o`tish mumkinki, uning natijalaridan, Qo`qon xonligida madaniy hayot va adabiy muhit haqida ma`ruza va seminar mashg`ulotlarida tayyorgarlik ko`rishda, mustaqil ta`lim topshiriqlarini bajarish jarayonida foydalanish mumkin.

Ishning tuzulishi: Kirish, 3 ta bob, 6 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati.

I-Bob. Qo`qon xonligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

1.1. Qo`qon xonligining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida

ayollarning tutgan roli

O`zbek davlatchiligi tarixida Qo`qon xonligi tarixi, jumladan uning ijtimoiy-madaniy hayoti bilan bog`liq masalalar tarixning tadqiqi muhim o`rin tutadi. Qo`qon xonligi ijtimoiy hayotining kam yoritilgan sahifalaridan biri Qo`qon xonligi malikalari hayoti va faoliyati tarixi hisoblanadi. O`z davrining keng ilm sirlarini egallagan, teran zakovatli bo`lib yetishgan, mehr-muhabbati yuksak qalb sohiblari bo`lgan malikalar davlatda qamrovi bir muncha keng sahovatpeshalik faoliyati bilan shug`ullanganlar. Dastlab Qo`qon shahri tarixiga bir nazar tashlaylik: Farg`ona vodiysining eng qadimgi shaharlaridan biri bo`lib, Qo`qon to`g`risidagi dastlabki ma`lumotlar X asrga to`g`ri keladi. Uni XIII asrda mo`gillar honavayron qilgan. Hozirgi shahar 1732-yilda qurilgan, fusunkor Farg`ona vodiysiga kiraverishda qulay joyda bo`lganidan tezda qayta tiklanadi va xonlik poytaxti bo`lib qoladi.<sup>11</sup> Qo`qon xonligi Markaziy Osiyodagi feodal davlat bo`lib, 1709-1876-yillarni o`z ichiga qamrab oladi. Xonlikning hududi 1841-yilgi ma`lumotiga qaraganda asosan, hozirgi Farg`ona, Namangan, Andijon, Toshkent, Xo`jand viloyatlari Qirg`iziston Respublikasi va Janubiy Qozog`iston sarhadlarini o`z ichiga olgan. Orenburg va Omsk shaharlari

¹¹ Isoqxon To`ra Ibrat,. Farg`ona tarixi. T.; "Ma`naviyat", 2005. 91-92-b.

Rossiya imperiyasining xonlik bilan chegaradosh viloyat markazlari hisoblangan.

Xonlikning vujudga kelishi to`grisida to`xtaladigan bo`lsak, XVI asrda Markaziy Osiyoda tinimsiz o`zaro feodal janjal va urushlar natijasida ikkita mustaqil musulmon davlati: Buxoro va Xiva xonliklari paydo bo`lgan. Ular ham bir-biri bilan tinimsiz janglar qilib turishdi. Bu janglar natijasida Buxoro xonligi kuchsizlanib qoladi. Natijada, Shohruhbiy ibn Ashur Muhammad Qo`qon xonligiga asos solgan ming qabilasining boshlig`i. U 1669-1970-yillarda tavallud topgan. Ming urug` XVIII asrning boshlarida siyosiy hukumatni xojagan sulolasining qo`lidan kuch bilan tortib olgan edi.<sup>12</sup> Ma`lumki, xo`jagon jamoasi Maxdumi Azam Ahmad ibn Jamoliddin xo`jagon Kosoniy avlodlaridan bo`lib, ularning hukmronligi XVII asrda Sharqiy Turkistonga yetib boradi. Shohruhbiy ham xo`jalar bilan ittifoq tuzib, hukmronligini mustahkamlash maqsadida chodak xo`jalaridan birining qiziga uylanadi. 1709-yilda urug` zodagonlari hamda xo`jalari roziligi bilan Shohruhbiy xonlik taxtiga o`tiradi. Shohruhbiy davrida O`sh, O`zgan, Xo`jand hali mustaqil bo`lib, Qo`qon davlatining shimoliy chegarasi Namanganning Shohidonigacha bo`lgan. Qo`qon xonligining umumiy maydoni 220 ming kv. Km ni tashkil qilgan. Aholisining umumiy soni 3 million kishi atrofida bo`lgan. O`zbek xonliklari ichida aholi eng zich joylashgan hudud Qo`qon xonligi bo`lgan. Bu yerda 15 ta beklikka bo`lingan. Chorizm bosib olganidan keyin bu yerda 2 million atrofida odam qo`yilgan. Aholisining ko`p qismini o`zbeklar, qirg`izlar, tojiklar, uyg`urlar, qozoqlar, qipchoqlar tashkil

¹² Mirzo Olim Mahdum Xoji. Tarixi Turkiston. T.; "Yangi asr avlodi", 2008. 6-b.

qilgan. Davlat boshqaruviga ko`ra mutloq monarxiya davlati hisoblanardi.

Qo`qon toponimining kelib chiqishiga bir nazar...

Qo`qon haqidagi ma`lumot X asr arab mualliflarining geografiyasiga oid asarlarida ham uchraydi. Masalan, Abu Ishoq Ibrohim ibn Muhammad al-Istahriy “Kitob masallik” asarida bunday deb yozgan: “Kimki Xo`janddan Farg`onaning asosiy shahri bo`lgan Ahsikentga borishni istasa, u Kentdan So`xga bitta manzil va Xuvaqandgacha – bitta katta manzil, Xuvaqanddan Ahsikentgacha bir manzil yuradi...”¹³

Bizning davrimizgacha shahar nomining kelib chiqishi haqida ancha rivoyatlar saqlanib qolgan. Ulardan birida shaharning nomi Xukkan (to`ng`iz, xuklar manzili, qarorgohi, to`ng`izlar yashaydigan joy) so`zidan kelib chiqqanligi haqida hikoya qilinadi. Shahar barpo bo`lmasdan oldin bu joy botqoqlik bo`lgan, bu yerda ko`p to`ng`iz “xuk”lar yashagani uchun “Xuk kon” yani to`ng`izlar makoni, to`ng`izlar joyi deb ataganlar. Shaharning qurishda botqoqlik quritilgan, to`ng`izlar esa qirib tashlangan. Bu haqida tarixiy asarlarda ham ma`lumot beriladi. Chunonchi, “Tarixi Farg`ona” asarining mualligi Is`hoqxon To`ra bunday deb yozgan edi: “Sahar bo`lmagan vaqtda Huqand o`rni to`qay va qamishzor yerlar bo`lib, u vaqtda Chodak xo`jalari tojiklar suvorolari ekanlar bul to`qaylarda har xil xuk va to`ng`izlar yurar ekan. Yerlarni kovlab, har xil ovqat topib yer ekanlar. Bu jihatdan tojik xo`jalari kelganda necha yillar kovlangan ekan. Ular bu chuqurlarda nima, kimlar kovlagan deganlarida tojik

¹³ Bobobekov X. Qo`qon tarixi. T.; “Fan”, 1996. 7-b.

javob berib, “Xuk kand” deganda, yani to`ng`iz kovlagan deganda, ul yerni ismi “Xuk kand” bo`lib, xuk kand etmoqda qiyin bo`lib, bizni turkiyda “qof” harfi qaviy uchun Xo`qand bo`lgan, “kof” ni turkey “qof” ga badal qilganlar turkiylar lavzidur”. mana endi yana bir badal bo`ldi, ruscha aytmogda “qof” yo`q “Kokand” bo`ldi. Shunga o`xshahs har vaqtda har qabila insonlari tabodul o`lib, ma`nolar o`zgargan. Muni bazi Xoqandiylar yaxshi tavil ila Xuy qand derlar, yani fe`li-xuyi qand degan emish.¹⁴

Boshqa rivoyatlarga qaraganda shaharning nomi Xavokent (shamollar shahri) so`zidan kelib chiqqan. Yana bir rivoyatda shahr “Qopqon” (tuzoq, pistirma) deb atalganini tasdiqlaydi. Boshqa tarixchilarning asarlarida Qo`oqn so`zi “Ko`pqn” so`zidan kelib chiqqan, buning sababi bu yerda juda ko`p urushlar bo`lganligi va juda ko`p qon to`kilganligi bois shunday deb atalgan degan ma`lumotlat uchraydi. Qo`qon so`zi qaysi so`zdan kelib chiqqan bo`lmasin, bu shahar yurtimizning eng qadimgi va tarixiy shaharlaridan biri va uning yoshi 2000 yildan kam emas. Vatanimiz tarixining yorqin sahifalaridan biri bo`lgan XVII-XIX asrlar choragida hukm surgan Qo`qon xonligi deb atalgan davlatning poytaxti sanalgan. Bugungi kunda ham bu shahr o`zining betakrorligi va qadimiyligi, o`zining boy o`tmish tarixiga ega bo`lgan shaharlar qatorida turadi. Mana shunday qudratli davlatning poyataxti bo`lgan shahar va uning tasarrufiga kirgan hududlarda hukm surgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar jarayonida ayollarga berilgan e`tibor va bu davrda jamiyatning eng ayanchli o`yinlari va shariatning qoidalari asosida yashagan xonlik fuqarolari haqida so`z yuritiladi. Bu

¹⁴ Is`hoqxon Junaydullohxo`ja o`g`li Ibrat. Fargo`na tarixi. T:,”Meros”, 1991.285-b.

davrda ayollarga boʻlgan munosabat Oʻzbek xonliklarining deyarli hammasida bir xil tarzda kechayotgan urf-odat anaʼnalar, shariat qoidalari, ayollarning haq-huquqsizliklari, jamiytdagi obroʻlarining bir qadar erkaklarnikidan past ekanligi yaqqol koʻzga tashlanadi.

Qoʻqon xonligida ayollarning ijtimoiy hayotiga oqsoqollar tomonidan saylab qoʻyilgan kayvoni rahbarlik qilgan. Kayvoni lavozimiga mahallada katta hurmat qozongan va oʻzbek turmush tarzini, urf-odat va anʼanalarini butun nozikligi bilan biladigan, sergʻayrat, faol, tashkilotchilik qobiliyatiga ega, odob-ahloqi bilan obro-eʼtabor qozongan ayol loyiq boʻlgan. Unga xodima yoki dasturxonchi qarashgan. Bu vazifaga koʻpincha beva xotinlarni saylagalar, chunki ularning boʻsh vaqlari koʻp boʻlgan hamda bu ish ularga qoʻshimcha daromad keltirgan.¹⁵

Qoʻqon xonligida ham oila munosabatlari boshqa xonliklardagi singari islom huquqi asosida qurilib, ulardan deyarli farq qilmagan. Islom oilasining oʻziga hos xususiyatlarini quyidagicha belgilash mumkin.

1. Oilaning fuqorolik huquqi asosga egaligi.
2. Koʻp xotinlilikka ruhsat berilishi.
3. Erkak kishining oila boshligʻi sifatida tan olinishi.
4. Oilada erning huquqlari ayol tomonidan buzilgan deb topilganda, ayollarni eri tomonidan jazolanmasdan, qolmasligining tan olinganligi.

¹⁵ <https://navoi.mahalla kengashi>

5. Erkak kishi uchun ajralish erkinligining mavjudligi va aniq belgilangan holatlarda ayol kishining ham nikohni bekor qilishni talab qilish huquqiga ega ekanligi.

Shariat qoidalariga ko`ra o`z majburiyatlarini ado etmaganlik uchun erga qatiiy choralar ko`rilgan. Xotin esa erga bo`ysunishi lozim bo`lib, urning ruhsatisiz hech qanday yuridik harakatlarni amalga oshira olmagan. Oilaning moddiy tashvishi va javobgarligi urning zimmasida bo`lib, bola tarbiyasi va parvarishi bilan ayollar mashg`ul bo`lgan. Biroq taxtga Umarxon o`tirganidan so`ng ayollar huquqlari ma`lum ma`noda himoya qilina boshlandi. Bunda

Umarxonning rafiqasi mashhur shoira Nodirabegimning xizmatlari e`tiborlidir. U ayollarning o`qib yozishni o`rganishlari uchun madrasada dars tashkil etib, otinoyilarning saboq berishini yo`lga qo`ygan. Bu xayrli ishga yana bir mashhur shoira Jahon Otin Uvaysiy ham o`zining beqiyos hissalarini ham qo`shgan. Shu bilan birga Nodira ayollarning haq-huquqlari poymol bo`lishiga juda qattiq qarshi turgan hamda huquqlari cheklanib, uy yumushlari bilan tamomila band bo`lib qolgan ayollarga savodli bo`lishlari uchun sharoit yaratib bergan. Nodira ayollarni jamiyatning siyosiy va madaniy hayotida faol qatnashishiga jalb etishga harakat qilgan hamda ozodlik, erkinlik va jamoa ishlarida erkaklar bilan yonma-yon turib, ishlashlariga hayrixox bo`lgan. Yuksak aqlu-donish egasi bo`lgan shoira xonlikda tutgan mavqeidan foydalanib, mamlakatda obodonchilik ishlariga, ma`rifat tarqatishga e`tibor bergan.

Nikoh yoshi qizlarga 9 yosh, erkaklarga 15 yosh qilib belgilangan edi. Shariat bo`yicha o`g`il bolalar 12 yoshda hamda qiz bolalar 9

yoshda to'lganda balog'atga yetgan deb e'tirof etilgan. Balog'at yoshiga yetganlar nikohga o'z ixtiyorlari bilan kirganlar. Voyaga yetgan qiz rozilgisiz uni turmushga berish man etilgan. Voyaga yetmaganlari uylantirish yoki turmushga chiqarish ota-onalarning rozligi bilan amalga oshirilgan. Bunday nikoh qonuniy hisoblanib, nikohni farzandlar voyaga yetgunga qadar bekor qilish mumkin bo'lmagan. Faqatgina nikohni ayol kishi tomonidan tuzilgan bo'lsa, uni bekor qilish mumkin bo'lgan.

O'tmishdagi jirkanch qoidalaridan biri qizlarni barcha insoniy huquqlardan mahrumligi edi. Qizlarning inon-ixtiori batamom ularning ota-onalarining qo'lida bo'lib, ular farzandlarining taqdirini ularning xoxshiga qarab emas, balki, o'z istaklariga qarab hal etar, qiz sho'rlik esa qon-qon qaqshab, bazan o'lim hukmidan ham og'irroq ota-ona farmoniga bo'ysunardi. Boyaqish qizlar o'zlarining musaffo qalblarida biror-bir yigit obrazini gavdalandirib, hayolan, baxt-saodat jannatida sayr etganlar, birdan ota-ona xoxshi bilan beaql, johil kimsaga yoki otalaridan qariroq boy eshonga, xamxona bo'lib, bu uy do'zahida kuyib kul bo'lardilar.

Bu toifa erlar esa qizlarga hayot yo'ldoshi emas, balki, berahm, beshafqat, jafokor edilar. Oilada erlar iqtisodiy ustunligi bois oilada o'zini Xudo deb sanardilar. Shuning uchun xotinni besababdan-besaba urar, haqorat qilar, xo'rlar, istasa ustiga uch-to'rt xotin olar yoki yosh go'daklari bilan xaydab yuborardi. Shu jihatdan qaraganda Said

Bibining “Zolim erkaklardan faryod” she’ri shu qadar samimiy, shu qadar dardliki, har qanday yuraklarni larzaga solib yuboradi.¹⁶

Bu davrda ijod qilgan shoirlar jamiyat hayotida ro’y berayotgan bunday adolatsizliklarni, xotin-qizlarning oilada xo’rlanib yashayotganliklarini o’z asarlarida bir necha bor aytib o’tganlar. Zamon, sharoit bu sho’rlik shoirlarni shunday ikanjaga olgan ediki, ular dunyoga kelganlariga ming pushaymon bo’lib, o’z umrlarini hasratda tamom qildilar. Shoir Sobira bibi Turkistonda qismati asoratdan, qullikdan iborat bo’lib, ular suratda insoniy, siyratda esa hayvon kabidir deb bu davrda yashagan ayollarga tariff berganlar. Shu o’rinda XVI_XIX asrlarda yashagan ayollarimiz hayotidan bir lirik, chekinish qilib, moziyga Islom dini paydo bo’lgan davrga qaytsak. Sababi muqaddas dinimiz Islomda barchaga birdek xitob qilib, erkak va ayollarga tenglik ila muomala qilingan. Haq-huquqlarida birini boshqasidan ustun qo’yilmagan. Shuningdek, islom shariati umumiy shaklda aniq maqsadga erishishni ko’zlagan bo’lib, u “himoya” deb ataladi. Himoya esa turli jabxalarda, turli shakllarda namoyon bo’ladi. Islom dini ayollarning sha’nini ko’tarib, turmush tarzini go’zallashtirgan. Payg’ambarimiz sallallohu alayhi vassallam ayollarga o’z erlariga itoat qilishni, erkaklarga esa jufti halollariga mehribonlik qilishni buyurganlar. Alloh taolo Niso surasida bunday marhamat qiladi: Erkaklar xotinlar ustidan (oila boshlig’i doimiy) qoim turuvchidirlardandir. Sabab - Alloh ularning ayrimlari (erkaklar)ni ayrimlari (ayollar)dan (ba’zi hususiyatlarda) ortiq qilgani va (erkaklar o’z oilasiga) o’z mol-mulklaridan sarf qilib

¹⁶ To’xtasin Jalolov. O’zbek shoirlari. 142-b.

turishlaridir. (Ayollar ichida) solihalari – bu (Allohg va eriga) itoatli, g`oyibga Alloh saqlaganicha himoyatli (ya`ni erlarining sirlari mulklari va obro`larine saqlaguvchi)lardir. Xotinlarning itoatsizligidan qo`rsangiz ularga avvalo, ularga nasihat qilingiz, so`ngra (bu ta`sir qilmasa), ularni (majruh bo`lmagudek darajada) uringiz. Ammo sizlarga itoat qilsalar, ularga qarshi (boshqacha) yo`l ahtarmangiz. Albatta Alloh oliy va ulug` zotdir.<sup>17</sup> Alloh taolo ushbu oyati karimada soliha ayolning sifatlarini bayon qilib, ortidan itoatsizlik sodir etgan ayolga rahm-shavqat bilan bosqichma-bosqich qilinishi kerak bo`lgan muomala uslubi haqida ta`lim bermoqda. Bu uslunda - abbal chiroyli pand-nasihat, so`ngra shunda ham itoat qilmasa qattiqroq chora ozor bermaydigan darajada ta`zir berishga izn bergan. Ushbu ta`lim mehribon va rahmli bo`lgan Alloh taolo tomonidan ayollarga bo`lgan izzat-ikrom namunai, desak, adashmagan bo`lamiz. Ayollarga bo`lgan ikromning namunalaridan yana biri shuku, ushbu surada ayollar va erkaklar lafzlarning teng miqdorda keltirilganligi edi.

Islom erkaklarga o`z ayollari bilan go`zal muomalada bo`lishini va bunda ular uchun yaxshilik borligini bayon qiladi. Shuningdek dinimizda ayollar ona sifatida ulug`lanadi. Islom farzandlari onalariga chiroyli muomalada bo`lishga buyurib, bu orqali ayollarni ona sifatida ulug`laydi. Alloh taolo Qur`oni karimdagi boshqa o`rinlarga nisbatan ota-onaga yaxshilik qilish borasida kelgan oyatlarni juda ham chiroyli tarzda bayon qilgan. Dinimizda ayollar shu darajada ulug`langaniga qaramasdan xonliklar davrida ayollarga bo`lgan

¹⁷¹⁷ Niso surasi, 34-oyat

munosabat tubdan o'zgarib, ular oiladagi oddiy bir buyum yoki bo'lmasa xizmatkor sifatida qaray boshlangan. Erkaklarga oiladagi ayollari yoqmay qolsa, yoki bo'lmasa ularni aytganini qilmasa ularni uydin bolalari bilan xaydab yuborish yo bo'lmasa, ular ustiga iki yoki uchta xotin olish holatlari bu davrdagi eng ayanchli ahvol edi. Bu esa shusiz ham qiynalib yashayotgan ayollarni ahvolini og'irlashtirib yuboradi. Muqaddas dinimizda ulug'langan ayollar xonliklar davrida xo'rlik girdobiga g'arq bo'ladilar.

Qozilar sudida oilaviy masalar, xotin-qizlar huquqi masalalari ham shariat qonunlari asosida hal etiladi. Shariat bo'yicha xotin-qizlarning huquqlari cheklanganligi, erlarning esa huquqiy jihatdan ustunligi qozilar sudida o'z ta'sirini o'tkazardi. Qozilar sudi muhokamasi garchi oshkora hisoblansa-da, amalda bunday emasdi. Shariatning guvohlik masalasida qoidalaridan yana biri bu erkaklar tomonidan berilgan guvohlikning ayollarnikiga nisbatan, afzal hisoblanishidadir. Shariatda ikkita ayol tomonidan beriladigan guvohlik, bitta erkak tomonidan beriladigan guvohlikka tenglashtirilgan.

Jinoyat ishlar bo'yicha ayollar guvohlikka chaqirilmagan va ular tomonidan beriladigan guvohlik e'tiborli hisoblanmagan. Ayollar faqat oldi-berdi, ayniqsa, oilaviy masalardagina guvohlik berishlari mumkin bo'lgan.¹⁸

¹⁸ O'zbek davlatchiligi tarixi. 372-b

Er-xotinlik sadoqatini intizomini buzganligi uchun er jinoiy javobgarlikka tortilmagan. Agar ayol tomonidan bunday tartibdagi intizomga rioya etilmasa Oila qoidalari asosida jazolangan.¹⁹

XIX asrning 40-yillaridan boshlab Qo`qon xonligidaning ijtimoiy va xo`jalik hayotida inqiroz yuz bera boshladi. O`zaro urushlar, siyosiy jihatidan notinchlik, Buxoro va Rossiya qo`shinlarining hujumlari xalq ahvolini og`irlashtirib, yer va suv munosabatlarini buzib, davlatni kuchsizlantiradi. Siyosiy beqarorlikni, xon hukumatining kuchsizligi, mahalliy hokimlarining xonga qarshi chiqishlari, ko`chmanchi xalqlarning markaziy davlat bilan ziddiyatlarni, bu xonlikning ham atrofidagi buyuk davlatlarning o`zaro mojaro obektiga aylanishi hayotning barcha sohalarini og`irlashtiradi.

Qo`qon xonligida ayollar qiziqchiligi – (teatri) - o`zbek xotin-qizlari orasida tarqalgan xalq og`zaki san`atining bir turi XVIII-XIX asrlarda ko`pgina shahar va qishloqlarda bu san`at katta rol o`ynagan. Masalan, XIX asrda Qo`qonda Iqlim dodxox degan san`atkor rahbarligida ayol qiziqchilar to`dasi bo`lgan. Ularning repertuari turli xil qiziqchilardan, kulgili hikoyalardan, hajviy qo`shiqlardan va yallalardan tashkil topgan. Keyingi davrda ham ayollar qiziqchiligi va uning an`analari davom etib keldi. Farqi shundaki, ayollar qiziqchiligida ijodkor ham, ijrochi ham, tomoshabin ham ayollar edi. Erkaklar rolini ham ayollar o`ynagan.

¹⁹ O`zbek davlatchiligi tarixi. 423-b

XIX arning oxiri XX asr boshlarida Toshkent viloyatidan Salomat Mutalova, Adolat Tursunova, Andijon viloyatidan Sojida Niyozmetova, Sottixon Ashurova kabi ayollardan ko`plab tanikli mazharaboz va qiziqchilar chiqqan. Bosh mavzu xotin-qizlarning kundalik hayoti, o`y-fikrlari, dardlari, orzu-istaklari bo`lgan.²⁰

Bu davrda ayollar kiyimlari ham o`zgacha bo`lgan. Ayollarning asosiy kiyim-kechaklari ko`ylak, ishton (lozim), xalat (to`n, mursak, kaltacha) edi. Oyoqqa mahsikovush kiyiladi. Boshda ro`mol, boshqa bosh kiyimlari va ularning xillari (salla, kasava, lachan, kulta va boshqa hokozolar) o`ralardi. Shuningdek, paranji, kurta va boshqalar yopinilardi. Ayollar ko`ylagi uzun yengli bo`lib, tunikasimon erkin bichilardi. Yoqasi belgacha tikka o`yilar va keng jun va ipak tasma - jiyak solinar, yosh ayollarda esa zanjirsimon choklanardi.²¹

Mursak, peshvon, paranji va to`n ayollarning ochiq barli ustki kiyim-boshining asosiy turlari hisoblanardi. O`zbekistonning qariyb butun hududida tarqalgan mursak uzun ochiq barli, tunikasimon, yoqasiz chopon edi. Mursak XIX asr o`rtalariga kelib, ayrim tumanlarda (hususan Toshkentda) modadan chiqadi, boshqa joylarda (Qashqadaryo, Buxoro va Sirdaryo vohasining ayrim tumanlarida) ustki kiyim yoki motam kiyimi shuningdek, bosh yopgich (kurta, chelak) sifatida foydalaveriladi. Paranjilarning ayollarning alohida turidir. Uni ayollar uydan chiqishda foydalanganlar. Yuzga ot qilidan qilingan chachvon taqilardi. Paranjilarning yelkaga yopiladigan kiyim chopon

²⁰ Normatova S.N. Qo`qon xonligida madaniy hayot va tarixnavislik. BMI. T.: 2014, 27-b.

²¹ O`zbekiston tarixi. G.R.Muqimova, N.N.Xabibullayev va boshqalar tahriri ostida. T.: "O`qituvchi", 1994-yil, 187-b.

ancha bugungi shaklining bir turidir. U orqaga tashlangan uzun yolg'on qo'lli cho'ziq to'rtburchak ko'rinishda bo'lardi. U ko'k rangli matodan astarli qilib, tikilardi. Paranji asosan shaharlarda yopilardi, ularni tayyorlash uchun alohida buyurtma berilardi. XIX asr o'rtalariga kelib, Toshkent ayollari o'rtasida ochiq barli kiyim-kamzul kiyish rasm bo'ldi. Ikkita yon cho'ntakli, tikka yoki yoyiq yoqali etib paxta yonini astar bilan qo'yib, tikiladigan, bu kiyim ustki kiyimga yopishib turardi. Charm kovush ayollar poyabzalining asosiy turi edi. U sirti yassi do'ngsasi baland va tumshug'I keng o'rtacha poshnali, dag'al yashil yoki sariq charmdan tikilardi. Kavushning o'rtacha yoki past poshnali sirti tor qora charmdan tayyorlanardi. Kavush bilan kiyiladigan mahsi ko'chalik poyabzal hisoblanardi. O'zbek ayollari kunda va bayramlarda taqiladigan turli xil bezaklar taqardilar. Bayram bezaklari majmui peshona, bo'yin, chakka, burun, ko'krak va boshqa bir qancha ashyolardan iborat edi. Peshona bezaklari qoshlar yoyiga o'xshardi (tilla qosh). Chakka bezaklari (gajaklar) kumush va tilla suvi berilgan naychalar bo'lib, sochning uzun zulfi ulardan o'tkazilardi. Oltin va kumush marjonlar, rang-barang xafanbonular bo'yinga yopishib turardi. Quloqlarga ilmoqli ziraklar taqilardi. Qizlar uchun qimmatbaho bezaklar erga chiqishlaridan oldin sotib olinardi. Davlatmand oilalardan bo'lgan ayollar (asosan shaharlarda) peshovuz va peshhalta deb atalgan ko'krak bezaklari taqardilar. Peshovuz qosh terish mo'ychinagiga va ayollar pardoz andozining boshqa ayollarga o'xshash ilmoqli tilla (tilla suvi yuritilgan) qubbacha shaklida bo'lib, ayollar ko'ylagining

yon etagiga taqib qo'yilardi. Ilmoqlari ichida kalitchalari bo'lgan peshxalta ham shunday taqilardi.²² Qimmatbaho bezaklar asosan kumush, oltin va nodir toshlardan yasalardi, ularni badavlat oilalardan bo'lgan insonlar olishardi, mehnatkash odamlarning bunday qimmatbaho buyumlarni olishga qurbi yetmasdi. Buxoro, Samarqand, Toshkent, Marg'ilon, Andijon bezaklarning barcha turlari bilan savdo qilardilar. Hunarmandlar ularning mahalliy odat an'analarini va didini hisobga olgan holda tayyorlaganlar.

Qo'qon xonligi tugatilganidan so'ng uning o'rnida 1867-yilda Turkiston general-gubernatorligi ta'sis etiladi. Bu yerda ham ayollarning huquqlari va ularni ozodlikga chiqarishga doir bir necha xujjatlar qabul qilinadi. Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakati namoyondalri tomonidan ham ayollar huquq va erkinliklari uchun juda ko'p bora kurash olib borilgan va ular katta qarshiliklarga duch kelganlar. Turkiston milliy demokratlari, ma'rifatparvarlari xotin-qizlarning Turkiston iqtisodiy va madaniy rivojida qatnashishlarini qo'llab-quvvatlagan. Shu o'rinda buxorolik Zuhridin Fatxiddinzodaning quyidagi fikrlari fikrlari mavjud: "Turkistonlik vatandoshlari: biz shuncha xotin-qizlarimizga yomon ko'z bilan qaraymiz. Biz shuncha xotunlar xaqqiga shafqat va marhamatsizlik qilamiz. Yetar endi, bu bechoralarni asorat zanjirida tutmoq, yetar jaholat chuquriga irqitmoq. Agarda bizlar xotin-qizlarimizni bu holda ilm va tarbiyadan mahrum qilaversak, o'zimizga zo'r zararlar keltiramiz. Kelajak zamonlarda bulardan vujudga keladurg'on va bularning quchog'ida o'sadurg'on ajdodlarimizning johil va nodon

²² Normatova S.N. Qo'qon xonligida madaniy hayot va terixnavislik. BMI. T.: 2014, 39-b.

qolishiga o'zimiz sabab bo'lamiz. Keling, endi g'afolat ko'rparasini uyimizdan irg'itib, birlik va ittifoq ila bir millat an'analarini jaholat panjasidan qutqaraylik, adolat va insoniyat yuzasidan bu vatan onalariga tartiblik maktablar ochib beraylik. Mana kelajagimiz saodat va baxtiyorligimiz shul xotin-qizlar tarbiyasiga kelib teriladur".²³

Bu fikr ayollarning o'lari tomonidan ham ma'qullangan edi: "Erkaklar ko'proq qizlar uchun latta-puttalar uchun qiladurg'on so'mlaringizni va dunyo uchun kerakli bo'lgan tarbiya va talim yo'lig'a sarf qilmog'ingizni va bu birgina bo'lsun bizlar uchun tartiblik maktablar ochib bermog'ingizni tamonno qilamiz".

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, XVI-XIX asrdagi yurtimizdagi ijtimoiy, madaniy hayot ko'rib turganimizdek, o'ziga xosliklaridan iborat. Bir tomondan adabiyot, tarix, me'morchilik, san'at sohalarida katta yuksalishlarni, betakror yutuqlarni qo'lga kiritgan bo'lsak, ikkinchi tomondan birlikning yo'qotilishi, o'zaro nizolarning avj olishi, tabiiy va texnika fanlariga e'tiborning yo'qotilishi, O'rta Osiyo xalqlari nafaqat jahon taraqqiyotidan orqada qolishiga, balki xalqimizning chet el bosqinchilari zulmi ostiga tushib qolishiga sabab bo'ldiki, bu yurtimizning 130 yildan ortiq qaramlikka qolib ketishiga olib keldi.

²³ Ilmiy ahborotnoma 2016-yil 4-son (98) 39-b.

1.2 Xonlikda ayollar adabiy muhitining vujudga kelishi

Turkiston azal-azaldan ilm-fan madaniyat rivojlangan o`lka bo`lgan va jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo`shgan. Bu o`lkaga islom dini kirib kelishi bilan birga masjid, madrasa, qorixona, maktablar vujudga kelgan. Yuzlab dunyoviy va islomiy fan olimlari yetishib chiqqan. Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat, ilm-fan, maorif yuksak darajaga ko`tarildi. Bu an`ana Qo`qon xonligi tashkil bo`lganidan keyin ham davom etdi. Va ko`plab madrasa, qorixona, maktablar bunyod etildi. Qo`qon xonligida XVII-XIX asr birinchi yarmida kechgan madaniy hayotida ham ijobiy o`zgarishlar va siljishlar yuz berib berganligi ayondir. Birinchidan, O`rta Osiyo hududi davlatlari XV asrlarda madaniy taraqqiyotda eng yatakchi o`rinlarda turgan bo`lsa, XVI_XVII asrlardan e`tiboran bu hududlarda tushkunlik boshlandi. Ikkinchidan, har uchala davlat birliklari o`zlari mustaqil faoliyat ko`rsatsalar-da davlat idora ishlari o`zbek va fors tilida olib borilardi. Buxoroda fors, Qo`qonda fors-o`zbek, Xivada o`zbek tili rasman davlat tili bo`lib, hisoblanardi. Turmushda va adabiy ijodda fors, o`zbek tillari keng qo`llanilardi. Uchinchi an`anaga ko`ra fanda, adabiyot va maktabda arab va fors tilining obro`si saqlanib, qolgandi. Bu davrda Qo`qon xonligiga oid yangi kitoblar yozildi. Oldinlari yozilgan bir necha tarixiy asarlar fors va arab tillaridan o`zbek tiliga tarjima qilinadi va Qo`qon xonligiga oid asarlar yoziladi. Bu yangi asarlarning o`ziga xos xususiyatlari ham bor edi – ularning ayrimlari she`riy va qisman she`riy usulda yoziladi. Qo`qon xonligida fan-texnika taraqqiy

etmaganligiga qaramasdan, madaniyat ancha rivojlangan edi. Qo`qon shahri faqat xonlik poytaxtigina emas balki, madaniy markaz ham hisoblanib, o`ziga hos adabiy muhit yaratgan shahar edi. Bu yerga turli dunyoga qarashli istedodli va malakali yozuvchi, shoir va shoirlar kelgan. Ularning aksariyati Qo`qonliklar edi. Ular o`zlariga xos muhit yaratib, asosan ikki oqimga bo`lingan edilar. Birinchisi saroy shoirlari bo`lib, ular xon va boylarni maktab turmush sharoitini ko`kka ko`tarib asarlar yaratganlar. Ikkinchi oqimga mansublar esa progressiv fikrda bo`lib, barchani xalqparvarlikka chaqirib, turmush og`irligini, o`zaro urushlarni, xudbinlikni, yolg`on va yomonlikni qoralab asarlar yozganlar.²⁴

Ammo shuni e`tiborga olish kerakki, ikkala oqimda ham qobiliyatli, o`z ona vatanini sevuvchi shoir va shoirlar ko`p edi. Shuni ham ta`kidlab o`tish lozimki, sovet davrida xon va boylarni ozgina maqatagan shoir va shoirlarni tanqid qilib yozishga ko`p majbur bo`ldi. Vaholanki, ular real vaziyatni e`tiborga olganlar. Shuning uchun adabiyotchilarimiz Qo`qon adabiy muhitini yana bir bor chuqurroq o`rganib chiqib, mahsus ilmiy tadqiqot ishlarini qilib, haqiqatni ochiq va ravshan yozishsa oqilona ish bo`lar edi. Bunday tadqiqotlar esa ko`plab, istedodli yozuvchi, shoir va shoirlar nomlarini xalqimizga taqdim etadi. Qo`qon adabiy muhitining yana bir muhim harakterli jihati shundaki, bu davrda o`zbek va fors-tojik tilida babbaravar qalam tebratgan bir qator taniqli va mashhur o`zbek shoirlari istedodi keng rivojlandi.<sup>25</sup> Qo`qonda ko`plab istedodli

²⁴ Bobobekov X Qo`qon tarixi T; "Fan" 1996, 164-b.

²⁵ Xudoyorxonzoada. Anjum at-tavorix, 325-bet

shoiralar bo'lgan. Bulardan quyidagilarni nomlarini qayd etish mumkin. Anbar Otin, Bahri Otin, Dilshod, Zebuniso, Zinnat, Karamatoy, Nodira, Saidabonu, To'tiqiz, Uvaysiy, Fazilatbonu, Fidoiya, Xafiza Otin, Xayriniso va boshqalar.

Qo`qon shahri ayniqsa o`zining shoirlari bilan mashxurdir. Xali birorta shaharda shunchalik ko`p istedodli shoirlar borligini tarix bilmaydi. Shuning uchun ham tarixda Qo`qon adabiy muhiti bilan mashhurdir.

XIX asr Qo`qon adabiy muhitining shakllanishi va rivojlanishida muhim o`rin egallagan Amiriy tahallusi bilan ijod qilgan Umarxon (1810-1822) va Muhammad Alixonlarning hukmronligi yillarida gullab-yashnaydi. . Shuning bilan birga, u feodal hukmdor sifatida qo`shni xonlik Buxoro bilan nizolarda bo`ladi, bosib olingan o`lka va viloyatlardan ko`plab aholi asir qilib Farg`ona olib kelinib, yangi manzillar bunyod qilinadi. “Tarixi muhojiron” memuar asari hamda “Sabot ul-bashar” she`rlar majmuasining muallifi Dilshod-Barno yoshlik yillarida O`ratepadan asira sifatida Qo`qonga haydab keltirilganlardan biri edi. Keyinchali u himoyat topib, Umarxon va Nodiraning iltifotiga sazovor bo`ladi. Dilshod-Barno doimo haqiqarni gapirib o`zining “Tarixi muhojiron” asarida Umarxon haqida quyidagilarni bayon qiladi: “Olim va buyuk shoir edi, biroq shunday bo`lsa-da, mazlum aholiga rahm-shafqati kam bo`lmagan” deb yozadi. O`z davrida uning saroyi adabiyot ahli, ilm-marifatli kishilar uchun ochiq bo`lib, panoh topganlar. O`sha payt Xo`qand atrofdan adabiyot ahllari kela boshladilar, hurmat ko`rdilar, ma`rifat ahllari ziyodalashadi. Umarxonning buyrug`i bilan o`sha davr shoirlari

Mushrif, Mirzo Qalandar va Mullo Abdulkarim Fazliylar tomonidan yaratilgan “Majmuat ush-shuaro” kitobining zamonamizgacha yetib birmuncha klassik shoirlarimizni o`rganishimiz uchun imkoniyat yaratdi. Ammo Qo`qon adabiyoti vakillari ichida o`sha davr voqea-hodisalarining diqqat bilan kuzatib borgan, turmush va tirikchilik muommolarini hal qilish haqida bosh qotirgan, xalqning orzu-umidlari ifodalangan, o`zining insonparvarligi bilan alohida ajralib turadigan shoira ayollar muhim o`rin tutadi.

Qo`qon adabiy faoliyatida shoiralarning adabiy faoliyati alohida o`rin egallaydi.

Nodira XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan mashxur shoira, davlat arbobi, madaniyat va adabiyot homiysidir. Nodiraning tarjimai holi o`sha davrda va undan keyin yozilgan tarixiy va adabiy majmualarda ancha keng yoritilgan. Mohlaroyim 1792-yilda Andijon hokimi Rahmonqulibiy oilasida tug`iladi. Rahmonqulibiy Ming urug`iga mansub zodagonlardan bo`lib, Farg`ona hukmdori Olimxonning to`g`asi edi. Onasi Oyshabegim ma`rifatli ayol bo`lib, oilasi Bobur nasliga mansub edi. Nodira tahsil olgan yillarda xalqimizning tarixi, madaniyati va ma`naviyatidan yaxshigina habardor bo`lib o`sadi. O`zi ham aql-farosati, go`zalligi va she`riy qobiliyati bilan tanildi. Uzoq yillar davomida Nodirani asli ismi Mohlaroyim bo`lgan degan fikr yuritilgan, lekin qo`qonlik olim va tarixchi Po`latjon Domulla Qayumovning bir necha yillardan keyin nashr qilingan, 1998-yili chop etilgan uch jildlik “Tazkirayi Qayyumiy” asarida Nodiraning asli ismi Mohlaroyim emas, balki Komila bo`lganligi aytiladi. Olimning fikricha, Mohlaroyim degani sharaflil

laqab bo`lib, o`rdadagi (xon saroyidagi) aslzoda ayollarni hurmatlab aytiladigan ism. Masalan, “Mingoyim, Hokim Oyim, Qozoq Oyim” kabilar. Demak, ismi Komila, sharafi unvoni Mohlaroyim, tahallusi Nodira bo`lgan.<sup>26</sup> 1807-yilda Marg`ilon hokimi Umarxonga turmushga chiqadi. Umarxon akasi vafotidan keyin (1810) Qo`qon xonligi taxtiga o`tiradi. Shundan boshlab Mohlaroyim taqdiri Qo`qon bilan bog`lanadi qo`qondalik vaqtida Nodira Sharq klassiklari asarlarini qunt bilan o`qiydi. 1822-yilda Umarxonning bevaqt vafotidan keyin, o`g`li Muhammadalixon Qo`qon xonligi taxtiga chiqadi. Shoiraning zamondoshi Xotifning guvohlik berishicha, Nodira Umarxon vafotidan keyin Farg`ona, Toshkent, Xo`jand, Andijon kabi shaharlardan olimlar, xattotlar, naqqoshlarni Qo`qonga chaqirtirib keladi. Madrasalar, kutubxonalar qurdiradi. Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Mashrab, Amiriy singari shoirlarning asarlarini nastaliq xatida ko`chirtirib, muqovalatadi. Manbalarda aytilishicha, o`sha paytda yuzaga kelgan madaniy va adabiy hayot yangiliklarining aksariyati Ndira bilan bog`liq edi. 1842-yilda Nasrulloxonning Qo`qon xonligini bosib olishi natijasida 50 yoshida o`ldiriladi.

Shoira 1822-yilda Umarxon vafotidan keyin tushkunlikka tushub qolmadi. Balki 14 yoshli o`g`li Muhammad Alixon taxtga o`tirgach barcha imkoniyatlardan foydalanib, madaniyat va san`atni rivojlantirishga harakat qiladi. Uning zamondoshi bo`lgan saroy shoiri Xojir shunday yozadi: “Umarxon vafotidan keyin bu iffat sadafining injusi Farg`ona, Toshkent, Xo`jand, Andijon va boshqa

²⁶ Orzibekov R. O`zbek adabiyoti tarixi. T.;2006, 214-b.

shaharlardan fozillar, olimlar, xattotlar, naqqoshlarni o`z xizmatiga chaqirib keldi”.

Nodira o`z hayoti davomida ilm va adabiyot ahlini ijod qilishga undadi va ularga sharoit yaratib beradi. U yaxshi ishlagan kotiblarga tilla qalam, kumush qalamdon berib, ularni “Zarrin qalam”lik mansabiga ko`tardi. Nodira adabiy merosining tahlili shuni ko`rsatadiki, u mumtoz she`riyatning barcha jabhalarida qalam tebratgan va uning o`zbekcha hamda tojikcha g`azallarida 5,7,9,13 hatto 18 baytli hajm va aruzning turli vaznlarida yaratilgan. Mumtoz adabiyot ananalaridan davom ettirgan shoira Navoiy, Fuzuliy, Bedil g`azallarida muhammaslar bog`lagan, o`z g`azallarida ko`proq muqarrar va qo`sh muqarrar usullarini qo`llaganligi bilan ajralib turgan.

Asosini lirika tashkil etgan Nodiraning she`riyatida muhabbat, sadoqat va vafo kuyladi. Shoira go`zallik va sadoqatni, Sharq xotin-qizlarning dard-alamlari va oxu fig`onlarini kuylaydi. Lirik g`azallari chuqur mazmundorligi va insonparvarlik mavzulari bilan o`sha davrdagi ilg`or g`oyalarini tarannum etadi.

Shu bilan birga u o`z asarlarida xonlikning o`rtasidagi o`zaro urushlarga norozilik bilan qaraydi, davrning insoniylikka zid bo`lgan mudxish qonunlari va urf-odatlariga qarshi norozilik tuyg`ularini ifodalaydi. Johil amaldorlar, riyokorlarni qoralaydi va hokimlarni adolat talab qiladi.

O`z davridayoq she`riyat malikasiga aylangan Nodira bizning zamonamizgacha ham nafiz so`z san`atkori sifatidagi fazilatleri

bilan kirib keldi. Nodira merosining katta va kichik qo'lyozmalari xalqimiz qo'liga yetib kelishi bilan ular matniy jihatdan o'rganilib, bir qator nashrlar yuzaga chiqdi. Jumladan, shoiraaning 60-yillarda chop etilgan ilk saylanmasi keyincha shoira asarlarining alohida jildlari sifatida boyidi. 1968-1972-yillarda shoiraaning ikki tom, uch kitobdan iborat o'zbekcha va fors-tojik tilidagi devoni nashrdan chiqdi. Nodira asarlari Tojikiston va Afg'onistonda chop etildi, ularning ruscha tarjimalari Sankt-Peterburglik sharqshunos olim S.N.Ivanov tarjimasida rus kitobxonlariga ham yetib bordi.

Respublikamiz mustaqillik yo'liga qadam qo'yishi bilan o'tmish qadriyatlarimiz tiklana borishi yana yangi saxifalarni ochdi. 1992-yilda mamlakatimizda shoira tavalludining 200 yilligi Qoqon, Andijon va boshqa shaharlarda keng nishonlanib, poytaxtimizda o'tkazilgan ilmiy amaliy anjumanlar va tantanali kechalar bilan yakunlanadi. Shu yillarda "Davr Nodirasi", "Ey sarvi ravon" kitoblari chop etildi. 1994-yilda "Fan" nashriyoti "Uvaysiy va Nodira she'rlaridan" iborat o'zbek shoiralari bayozi turkumli yana bir yangi nashrni chop etdi. Badiiy adabiyotda esa Nodira obrazi gavdalantirildi, drama, roman, kinofilmlar yaratildi. Shahar va qishloqlarda bu hassos ijodkor nomi bilan atalgan kinoteatrlar, ko'chalar, kutubxonalar va madaniyat maskanlari mavjud.

Ismi Jahonoy (Jahonotin), tahallusi Uvaysiy, Vaysiy (xo'rlangan) bo'lgan bu shoiraaning lirik janrlardagi asarlarini o'z ichiga olgan she'riy devoni (bir necha nusxada), "Qissasi shag'zoda Hasan", "Qissayi shag'zoda Husayn" nomlaridagi diniy-sarguzasht dostonlari hamda "Voqeoti Muhammad Alixon" nomli tarixiy manzumasi bor.

XIX asrda tuzilgan ayrim tarixiy solnomalarda shoira asli marg'ilonlik bo'lib, 1789-1790-yili dunyoga kelganligi, o'ta savodxon otincha ayollardan biri sifatida tanilib, keyinchalik Qo'oqda o'jod qilganligi, aytiladi. Masalan, "Tazkirai Qayyumiy"da shoira tarjiami holi va qismati haqida quyidagi ma'lumotlarni keltirgan: "Marg'ilonli shoir va hofiz Siddiqbobo Fayziyning qizidir. Adabiy sohaga otasi tortmishdur. Otasi oilaviy turmushi buzilgan qizini do'sti - mansabdor shaxs Abulqosim Otali (shoir Vazir) orqali Xo'jandga yuborgan. Bir-ikki yildan so'ngra shoiraligi bilan shuhratlandi va ovozasini xonning haram saroyiga ma'lum bo'lgach, Mohlaroyim o'z huzuriga qabul etdi va unga mushfiqlik qilib, haramda o'ziga munosib bir o'rin ko'rsatdi".²⁷

Uvaysiyning onasi Chinnibibi ham savodli ayollardan bo'lib, o'z mahallasida maktabdorlik qilgan. Uvaysiy yoshligidanoq oilada savod chiqargan, ko'p kitob o'qigan, otasi va akasidan dutor va tanbur chalishni o'rganib olgan. Shunday madaniyatli, ma'rifatli muhit Uvaysiyning o'z zamonasining bilimdon ayoli va iste'dodli shoirasi sifatida kamol topishida katta ro'l o'ynadi. Akasi Ohunjon Hafiz ham taniqli madaniyat va san'at homiylaridan edi. Uvaysiy oilada tehsil olib, savod chiqardi. Keyinchalik uni marg'ilonlik kosi Xojixonga uzatadilar. Lekin Xojixon juda erta vafot etadi. Qizi Quyoshxon va o'g'li Muhammadxonlarni o'zi tarbiyalab voyaga yatkazadi. Ayniqsa, Nodira himoyati va homiyligida kechgan yillari unga munosib shuhrat keltirgan. U haramdagi murabbiy va ustoz shoiralardan, tarbiyachilardan biri sifatida hurmat qozongan. U bir

²⁷Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi, T.,2006. 200-b.

she`rida Nodirani o`zining jonkuyar g`amxo`ri, homiysi sifatida ta`rif etgan. Nodira fojiasidan so`ng u Marg`ilonga qaytadi. Uvaysiy lirikasi Nodira, Mag`zuna, Dilshod ijodidagi o`zbek, tojik ayollari shahsiyati va ma`naviy olamining mumtoz timsoli asosiy mazmunini tashkil qilgan. Uning devonidagi she`rlarda ishq-muhabbat, yor-u diyor, visol va hijron, ona va farzand, dunyo va ilohiyot haqidagi rang-barang mavzular talqin etiladi. Uning ko`p she`rlarida muhabbat o`tida o`rtangan ayol sifatida namoyon bo`ladi. Bunday she`rlarda qo`llangan tasviriyy vositalar ham ayol kishining ishqdagi ahvol-ruhiyasini ifodalashga qaratiladi. Uvaysiy adabiyotimizda Alisher Navoiydan so`ng lug`z-chiston, muommo va muvashshah janrlariga alohida e`tibor berdi, bu sirli janrlarni adabiy ijodda ana`na sifatida davom etishida katta xizmat qildi. Nodira Uvaysiyni kanizak va yosh qizlarga balog`at (she`r ilmi), advor (musiq) ilmlarini o`rgatishni shoiraga topshirgan. Uvaysiy bu imkonitadan unumli foydalanib, navnihol yoshlarning bilimli va topqirliklarini chuqurlashtirish, so`zga chechanliklarini oshirish maqsadida muommo baytlar, tajnisli qit`alar, fardlar, chistonlar, muvashshaxlar yozib turgan. U o`zi yozgan ana shunday qiziqarli she`rlari sirlarini yoshlarga o`rgatgan. Uvaysiyning sirli she`r janrlariga alohida mayl va e`tibor bilan qarashining sababi faqat shu bilangina emas, balki shoira o`z ijodida ma`rifiy-talimiy yo`nalish bilan bog`lashga harakat qilgani hamdir. Uvaysiyning sirli-topishmoq she`rlarida shaklbozlik berilish alomatlari sezilmaydi, balki ularning ta`limiy jihatlariga alohida e`tibor qaratiladi. Uning muvashshahlari qariym hammasi g`azal shaklidir. Uvaysiyning vafotiga uniing sobiq

talabalaridan biri Ojiza gʻazal-marsiya yozgan. Uvaysiy 1850-yili vafot etgan. Oltmish bir yil umr koʻrgan.

Saroyda sheʼriyat ilmidan dars beradi. Shogirdlar yetishtiradi. Uvaysiy Nodira vafotidan keyin Margʻilonga ketadi va 1850-yilda vafot etadi.

Dilshod oʻz asarida Uvaysiyni Nodirabegim bilan birga xonlikning koʻpgina shaharlariga borganliklarini, lekin davr siyosiy tangligi tufayli umrining oxirini Margʻilonda oʻtkazganligini yozadi.²⁸

Shoiraning 4 devoni borligi haqida maʼlumotlar boʻlsa-da, lekin bu devonlarining asl nusxalari hozirgacha topilmagan. Uvaysiy ham Nodirabegim singari mumtoz oʻzbek sheʼriyatining deyarli barcha janrlarida ijod qilgan. Uning asarlari gʻoyaviy-tematik doirasi va koʻp qirraligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa shoiraning “anor” chistonida davrning ijtimoiy voqealari, ayollar tutqunligi mohirona bayon qilingan.

Dilshod (1801-1905/06) demokratik maʼrifatparvar tojik shoirasi. Uni oʻzbek shoirasi deb ham aytish mumkin. Chunki u 17 yoshida asirga tushib, Oʻratepadan Qoʻqonga olib kelinadi. Bu yerda oʻzbek yigitiga turmushga chiqib, umrining oxirigacha yangidan oʻzbek tilda koʻplab gʻzallar yozadi. Dilshod oʻz ijodida jamoatchilik fikrini ifoda etadi. Hayotning turli tomonlarini ochib beradi. Uning tojik va oʻzbek tillarida yozgan asarlari bir-birini toʻldiradi va boyitadi. Ularni bir-biridan ustun qoʻyish mumkin. Chunki shoira bu tillarni mukammal bilganligi tufayli. Ikkala tilda ham chuqur va mazmunli asar yozadi va yurakdagi, qalbdagi soʻzlarini mohirona bayon etadi. Dilshod oʻzining

²⁸ Shodmon Vohidov. 119-b

she`r va g`azallarida hukmron sinfning yuqori tabaqalarini, feodal va ekspluatatorlarning kirdikorlarini tanqid qiladi. Ma`naviy tushkunlikni, tekinxo`r va bezorilarni qoralaydi.

Dilshod Umarxon bilan uchrashganini quyidagicha bayon etadi: “meni yasantirganday yalang`ochligimcha qandaydir xonaga olib kirishdi.” u yerda amir chopon va sallalik o`tirar edi. Oldida qora stol uning ustida suv, pichoq va bir dona anor bor edi. Xon baland bo`yli, qora ko`zlik, qora soqolli va ochiq yuzli bo`lib, salobatli ko`rinar edi.

Mening salomimdan keyin men bilan xushmuomalalik bilan suhbatlashi, uning xushmuomalaligiga qaramay, menga johil va qonxo`r podshoh bo`lib tuyuldi. U menga qani g`azal tuzadigan tojik qizi yonimga kel dedi.

Men bilan savol-javob qilib, ismimni, kelib chiqshimni so`rab bo`lib, anor haqida g`azal to`qishimni talab qildi.

Dilshodning ijodi tarixiy materialga boyligi, ijtimoiy mazmundorligi, xaqqoniyligi, xalqparvarlik g`oyalari bilan sug`orilganligi uchun ham o`zbek va tojik mumtoz adabiyotining qimmatli namunalarida hisoblanadi.

Shoira umrining oxirigacha Qo`qonda yashab ijod etadi. Dilshod shoiralik bilan bir qatorda maktabdorlik ham qildilar va ko`plab shoiralarni tarbiyalab yetishtirgan. Shoira yaratgan muhammas, musaddas, badiiy xotiranomalar, dostonlar (“Tarixi muhosara”, “Xatti muntaxab al-ash`or”, “Zamonadin shikoyat”, “Xayot madxi” va boshqalar)da real tarixiy hodisalar, xalq hayoti va turmushi haqida fikr yuritiladi. Uning asarlari tarixiy manbalarga boyligi,

ijtimoiy mazmundorligi, haqqoniyligi, xalqparvar g'oyalar bilan sug'orilganligi uchun ham o'zbek va tojik mumtoz adabiyotining muhim namunasi hisoblanadi.

Qo`qonlik shoir va shoirlar haqida Dilshod bunday deydi: “Men anchadan beri yashab kelayotgan Qo`qon shoirlar shahridir. O`n ikki darvozalik bu katta shaharda to`rt yuz qirq mahalla bor deydlar va har birida shoirlar bor..

Qo`qon maydonining Sarimozor dahasida birorta mahalla yo`qki, u yerda biror-bir shoir va donishmand bo`lmasa. Xo`ja Kalon To`ra mahallasida mendan tashqari yana Maxzani, Turobi va Bahori taxallusli shoirlar va Fidoiy ismli shoira yashardilar”.²⁹

Samar Bonu Sirojiddin qizi – 1837-yilda ulug` faylasuf shoir Huvaydo meros qilib qoldirgan yuqori darajadagi adabiyot muhitiga ega bo`lgan, o`z davrining kuchli adabiy-falsafiy doirasining markazi bo`lgan oilada tavallud topgan. Samar bonu tarbiyani, avval, oqila, fozila ayol bo`lgan onasidan, keyinchalik otasi – shoir va olim Mavlaviy Sirojiydan olgan. Samar Bonu 1855-yili otasining shogirdi Andijonning Mingtepa “hozirgi Marhamat tumani”da yashovchi Sharifjon ismli yigitga turmushga chiqqan. O`n oy turmush qurgan Samar Bonu eri fojiali o`ldirilganidan so`ng, yangi tug`ilgan o`g`li Zahiriddin bilan beva qoladi. Uning “Bonu g`arib” she`ri bu og`ir judolik va musibatdan, o`zi kabi ayollar qismatidan, zamonasining haqsizligidan zorlanib bitilgan. Samar Bonu hayotning o`gir sinovlaridan mardonovor o`tadi. U maktab ochdi, qizlar uchun

²⁹ X.Bobobekov. Qo`qon tarixi. T.:, “Fan”, 1996.167-b.

o`ziga hos dorilfunun yaratadi. Uning pedagogika sohasidagi faoliyati yurtimiz talim tizimining rivojida o`ziga hos ahamiyat kasb etadi. Samar Bonu 1891-yili 54 yoshida Mingtepada vafot etgan.

Anbar otin Farmonqul qizi (1870-1906) - o`zbek demokratik shoirasi. Kambag`al kosib oilasida tug`ulgan. Otasi Farmonqul asli Marg`ilonlik bo`lib, shoir Uvaysiyni jiyanidir. Onasi Sho`rbibi Qo`qonlik bir kosibning qizi bo`lgan. Anbar otin yeti yoshida o`z mahallasidagi Dilshod otinnning maktabida talim oladi. Dilshod otin o`z davrining bilimdon shoir tabiat, dono ayollaridan bo`lib, “barno” tahallusi bilan sherlar ham yozgan. U Anbarning she`riyatga qiziqishini ko`rib, mumtoz adabiyot namunalari bilan tanishtirgan. Dastlab kichik she`rlar yoza boshlagan. Anbar ko`proq Uvaysiyga ergashadi. Uning g`azallarini diqqat bilan o`rganadi, muhammaslar bog`laydi. Ayniqsa Navoiyni birinchi ustoz hisoblaydi. Anbar otinning turmush o`rtog`i Zohidxo`ja ham adabiyotga ixlosmand kishi bo`lib, Muqumiy, Fitrat, Furqat, Zavqiylar anjumanida qatnashgan. Anbar otin ham bu suhbat va mushoiralarda ishtirok etgan. Uning “mushoira” nomli haqida risola yozganligi haqida og`zaki ma`lumotlar uchraydi. Anbar otin haqgo`y va oqilligi bilan mahallama-mahalla ayollar o`rtasida obro` qozonib, Otin, otincha nomini olgan. U boyvachchalarga qarshi hajviy sherlar yozgan. Bundan g`azablangan boyvachchalar shoirni bir yig`inda rahimsizlarcha kaltaklab, keyin baland zinadan itarib yuboradilar. Natijada shoirani ikki oyog`i sinadi. Shundan so`ng shoirni sog`ligi yomonlashib, o`pka kasalligiga duchor bo`ladi. Biroq u umidsizlikka tushmaydi. She`r shoiraning butun umri davomida ajralmas do`sti hamdardi bo`ladi. 1905-yillar Anbar otin devon tuzib, unga 41 g`azal,

4 muhammas, 1 qit'a, 1 mustahzod va she'riy tarjima hollarni kiritgan. Anbar otin haqiqatni aytishdan cho'chimaydi. U xalqni jaholatda tutuvchi reaksiya din ahlini riyokor shayhlarni qattiq tanqid qiladi. Anbar otinning boshqa g'zallarida ham ma'rifatparvarlik va yuksak insoniylik g'oyalari talqin etilgan. Zamonasining turmush lavhalaridan tasirlanibgina qolmay, ularga ijtimoiy lavhalar ham beradi, mashum zamonani o'zgartirish, xalqning harakatiga bog'liq degan xulosaga keladi. Anbar otining dunyoqarashini falsafiy tafakkurini o'zida mujassamlashtirgan "qoralar falsafasi"dir. Asar kirish va to'rt fasl "qism"dan iborat. Har bir qismda shoira ijtimoiy hayotdagi, biror muhim masalaga o'z qarashlarini va mushuhadalarini bildiradi.

Zebuniso - XIX asrda yashab ijod qilgan Qo'qon shoiralaridan biri Zebunisodir. "Ash'ori nisvon" (Ayollarning she'riyati) taskirasida yozilishicha, Zebuniso o'z davrining bilimli va oqila ayollaridan biri bo'lib, shu to'plamda shoiraning ijodidan namunalar keltiriladi. Uning she'rlaridan asosan erk va adolat tuyg'ulari tarannum etiladi.

Qo'qon xonligida yashab ijod etgan yana bir o'zbek shoirasi Mehribon Mulla Boshmon qizi Mahzuna bo'lib, shoiraning hayoti va faoliyati to'g'risida to'la ma'lumot yo'q. Lekin u haqidagi ayrim ma'lumotlar Fazliyning "Majmuat ash-shuaro" (shoiralar to'plami) va "Tazkirayi qalandaron" (Qayumiy to'plam) asarlarida uchraydi. Fazliyning "Majmuat ash-shuaro" asarida Mahzuna haqida bunday deyilgan: "U aqlu idrokda Zebunisodek yagona bo'lib, Qo'qonning mashhur shoiralaridandir. Bu oy yuzlining tahallusi Mahzuna bo'lib... men notavon turli o'y-fikrlar bilan unga

qanday gʻazallar yubormayin ul pari chehra menga har baytimga gavhardek pok javoblar qaytarar edi”. Mahzunaning devoni xususida ayrim maʼlumotlar uchrasada, lekin bu devoni hali topilmagan. Uning Fazliy bilan qilgan mushoirasi qobiliyatini namoyish etib turadi. Mahzunaning dunyoviy gʻazallariga hamohang. Erlar bilan ayollar oʻrtasidagi har qanday munosabatlar taqiqlangan bir paytda Fazliy bilan mushoira qilgan uning ijodida jasoratdir. Mahzunaning ayrim gʻazallari qoʻlyozma qogʻozlarda uchraydi.

Mohzoda Begim (XIX asr) – oʻzbek shoirasi. Uning yashagan davri va tarjimai holiga oid maʼlumotlar kam saqlangan. Mohzoda Begimning “Jahon xitob” deb ataluvchi sheʼri qoʻqonlik maʼrifatparvar shoir Ibrohim Davron (1874-1922) bostirib chiqargan. “Ashʼori nisvon” (Ayollarning sheʼrlari) kitobiga kiritilgan. Shoir bu sheʼrida oʻz davridagi xotin-qizlarning ayanchli qismati, ularning huquqsizligi va mudxish hayotini tasvirlab, oʻzi yashayotgan tuzumning adolatsizligidan shikoyat qiladi.

Zinnat (hozircha uning asl ismi nomaʼlum) - shoir, davlat arbobi, dodxoh. V.P.Nalivkin va M.S.Nalivkininalar “Очерк быта женщин оседлого туземного населения Ферганы” nomli kitobida “Qoʻqonda ikkita shoir yashagan, birining tahallusi Zinnat, ikkinchisi esa Maxzuna tahallusli”. Ishontirib aytishmoqdalarki, ulardan biri ochiq yuz bilan erkaklarcha kiyinib, xon saroyiga kelar ekan va uning dodxoh unvoni ham boʻlgan. Ikkalasi ham asarlari Umarxonni

singari “Majmuat ush-shuaro” nomli sheʼrlar toʻplamiga kiritilgan deb yozadilar.³⁰

Qoʻqon xonligi tarixida hozircha maʼlum boʻlgan ayol dodxoxlardan faqat Qurbonjon dodxoxni (1811-1907) bilamiz. Ammo Umarxon davrida tuzilgan “Majmuat ush-shuaro” nomli toʻplamga uning gʻzali kiritilganligini eʼtiborga olsak, u mahalda Qurbonjon dodxox yosh qizcha boʻlgan edi.

Zinnat kim boʻlishidan qatʼiy nazar, ular yozgan sheʼr va gʻazallar mazmundor va yetuk boʻlgan. Ushbu satrlar muallifining kutubxonasida bir qoʻlyozma bayoz kitobi bor. Unga Zinnatning “Baxru odobki...” soʻzlari bilan boshlangan sheʼri kiritilgan. Bunda u insonni ulugʻlaydi, odob haqida falsafiy fikr yuritadi, hayotda mavjud boʻlgan qarama-qarshiliklar haqida gapirib, ularning biror kun bartaraf boʻlishiga umid qiladi, xalqni esa Quyoshga oʻxshatadi.

Nozuk Xonim – (XIX asr oxiri - XX asr boshlari) – oʻzbek shoirasi. Yoshligidanoq sheʼr yozishni mashq qilgan. Asarlarida ishq-muhabbatni kuylagan, “zolimlarga qarshi nafrat hislarini” bayot etgan. Ibrohim Davronning “Ashʼori nisvon” nomli tazkirasida shoiraning “Fasona”, “Rext gul”, “Gʻazal afsona” deb ataluvchi sheʼrlari kiritilgan.³¹

Mushtariy, Saodat (1810, vafoti nomaʼlum) - oʻzbek shoirasi, Xudayorxon saroyida kotib, munshiylik qilgan. Sheʼrlarida

³⁰ X.Bobobekov. Qoʻqon tarixi. T.;, “Fan”1996, 168-b.

³¹ X.Bobobekov. Qoʻqon tarixi. T.;, “Fan”1996, 171-b.

kishilarni yaxshilik, kamtarlik, poklik va adolatga chaqiradi. Johil va tuban kishilardan nafratlanadi. Uning ijodida dostonchilik va qissanavislik yetakchi o`rinda turadi. Shoiraning xalq og`zaki dostoni og`zaki adabiyotda “Orzigul”, dostoniga mazmunan yaqin. Mushtariyning “Jamilai Dilorom” dostoni va xalq qo`shiqlari usulida yozilgan g`azallari mavjud.

Mana shunday shoirlar ijodini davom ettiruvchi shoirlar ularning ishlarini davom ettirganlar. Bularga misol tariqasida Nozima Xonimni misol qilib keltirish mumkin.

Nozimaxonim (1870 – Toshkent - 1924) – shoira. O`zbek ayollari orasidan chiqqan birinchi journalist-publisist. Tatar, arab va fors tillarini o`rgangan. Orenburg va Qozonda chiqib turgan matbuotni muntazam kuzatib boradi. Yevropa adabiyoti va madaniyati bilan tanish, erkparvarlik g`oyalaridan bahramand bo`lgan. O`zbek va fors mumtoz adabiyotini, ayniqsa, Sadiy va Hofiz asarlarini o`qigan. She`r va maqolalari 1900-yildan matbuotda bosilgan. 20 yoshlarida shoira “beshyog`ochlik Nozimaxonim” nomi bilan mashhur bo`lgan. Taraqqiyot, ma`rifat va madaniyatni tashviq etuvchi she`r va manzumalari, jaholat, bid`at-xurofotni fosh etuvchi asarlari, zamonasining ijtimoiy tengsizlik va avj olgan milliy istibdoddan keskin norozilik bayon qilingan o`tkir hajviy she`rlari “Shuhrat”, “Sadoyi Turkiston”, “Taraqqiy” kabi gazetalarda muntazam chiqib turgan. Shoira mehnatkash xalqning milliy ozodlik harakatini qo`llab-quvvatlagan, xotin-qizlarning jamiyatdagi roli va o`rni haqida asarlar yozgan, jaholat va zulm poymol etgan o`zbek ayolining milliy, insoniy haq-huquqlarini talab qilib chiqqan.

Nozimaxonim 1905-1917-yillar o'zbek adabiyotining yetakchi tamoyillarini aniqlashda, 20-yillar o'zbek she'riyatining harakterli xususiyatlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.³²

Muazzamxon – XIX asrning ikkinchi yarmida Xo'jand shahrining chorshanba guzarida Masjidi Surx mavzeida tavallud topgan. Uning otasi Mirsaid o'z zamonining o'qimishli kishisi bo'lib, hamma bolalarining, jumladan qizi Muazzamxonni xat-savodli, bilimli bo'lishlariga ko'p e'tibor beradi. Bolalarida adabiyotga zavq-shavq uyg'otadi. O'zi ular bilan adabiy bahslar o'tkazib, muomolarni hal etadi, she'riy chistonlarni yechadi. Muazzamxon 16 yoshida Eshon nomli bir mullabachchaga turmushga chiqadi. u Muazzamxonni olib Jizzahga, qarindoshlari oldiga keladi. Oradan sal o'tmay Eshonning akasi o'lib, yosh xotini beva qoladi, shundan keyin Muazzamxon kundoshlik balosiga yo'liqadi. Muazzamxon Eshondan to'rt bola dunyoga keltiradi, bolalari balo'g'at yoshiga yetganida bollarining hammasi vabo kasalligidan vafot etadi. Bu og'ir judolikka chiday olmagan Muazzamxon ikki ko'zi ojiz bo'lib, oyoqlari shol bo'lib ishlamay qoladi va shundan keyin 1917-yilda kasallikdan vafot etadi. Uning vafoti bilan taziya kelganlar nafaqat Jizzahdan balki uning atro-tumanlaridan ham insonlar keladi. Bu bilan bu paytda shoira o'z she'rlari bilan atrof-tumanlarga ham nomi bilan mashxur bo'lgan shoira edi. Muazzamxonning 18 ta she'ri bugungi kungacha saqlanib qolgan. Muazzamxon asarlari badiiy jihatdan klassik poeziyamiz saviyasi bo'lib, uslubning ravonligi, fikrning ravshanligi, ifodalarning aniqligi bilan ajralib turadi. Muazzamxon o'zbek va fors she'rlari namunalari keng

³² W.W.W.wikipedia.uz

tanishgan va aruznu mukammal o`zlashtirgan shoirlardan biridir. U yoshligidan she`r yoza boshlagan bo`lsa-da. Uni birovga ko`rsatmay “sir” saqlab kelgan. Biroq qog`ozga tushurilgan bu musibatnomalari abadiy “sir” bo`lib qololmagan shoiraning Jizzahda dong`I chqib, bu ovoza Toshkentgacha yetib keladi. Shoiraning qarindoshi Mo`tabarxon Alaviyaning rivoyatiga qaraganda: 1916-yilda Toshkentlik Sanamxon Oyim³³ degan bir fozila ayol Muazzamxonning 25 sahifalik qo`l yozma she`rlarini nashr qilidirish niyatida Toshkentga olib kelgan. Biroq bu orada Sanamxon o`zining bu ezgu niyatiga yeta olmay olamdan o`tgan. Natijada shoiraning she`rlari yo`qoladi. Shoiraning qarindoshi Mo`tabarxon Muzayana Alaviyaning hikoya qilishiga qaraganda: shoiraning yuz varaqdan ziyodroq boshqa bir she`rlar to`plami ham yo`qolgan. Muzayana Alaviya bizga taqdim etgan terma bayozdagi she`rlar esa shoiraning umrining oxirida yozgan she`rlari hisoblanadi. Muazzamxon vafotidan so`ng bu she`rlari uning sodiq muhlislari tomonidan ko`chiriladi. Shu tariqa bu shoira ayoldan oz bo`lsada bizga uning yozgan she`rlari yetib keladi.

Yuqorida nomlari aytib o`tilgan Qo`qon adabiy muhiti vakillarining ijodida ko`rinib, turibdiki, XIX asrda xonlikda adabiyot keng rivojlangan va ko`plab istedodli shoir va shoirlar yetishib chiqqan

Umuman aytganda, XIX asrda Qo`qon xonligida mamlakatning avvalgi hukmdorlaridan farqli o`laroq madaniy hayot va adabiy muhitni shakllantirishda temuriylar davriga taqlid yaqqol namoyon

³³ Mahbuba Qodirova. MUazzamxon. “O`zbek xotin-qizlari” jurnali, 1958-yil, N:4

bo`ladi. Buni hukmdor Umarxon davrida shakllangan, uning boshchiligida faoliyat ko`rsatgan adabiy muhit va adabiyot namoyondalarining merosi misolida, yaratilgan asarlarning shakli va janrlarida ko`rish mumkin. Madaniy hayot va adabiy muhitda ham ming sulolasining madaniy legitimlashga intilish ustunlik qiladi.

O`rta Osiyoda islom dini hukron bo`lib kelishini hisobga olsak, har bir shoiraning maydonga chiqishi o`z zamonasining muhim bir voqeasidir. Darhaqiqat, xotin-qizlar o`zlarining g`oyalari bilan siyosiy maydonga chiqdilar. Davr adabiyotiga munosib xissa qo`shdilar. Ayollarning badiiy tafakkuri XIX asrga kelib, Nodira va Uvaysiy misolida yanada yaqqol yuqori cho`qqiga chiqdi. Ular o`z asarlarida ayollarning orzu-umidlarini, eng yaxshi fazilatlarini ifodaladilar. O`sha davrning eng yorqin namoyondalaridan biri Dilshod Barno Nodira bilan bevosita uchrashmagan bo`lsa-da uni mehr-muhabbat bilan tilga oladi. O`zining “Tarixi muhojiron” asarida: “O`rdadan chiqqach, ikki yil keyin faxm etsimki, u yerda Farg`ona mulkining malikasi, she`riyat va tarona zavq-shavqining sohibasi, yani davr Nodirasi va zamoning mashxur shoirasi hayot ekanlar, ko`rishga ko`p harakat qildim, ammo muyassar bo`lmadim”. Bunday ta`riflardan ko`rinib turibdiki, bu davr jamiyat hayotida Qo`oqn xonligida vujudga kelgan o`ziga xos bir adabiy muhit va uning ijodkorlari bo`lgan zabardast va qalami o`tki shoiralar jamiyatning eng serqirra va mehnatsevar insonlari bo`lib, xalqni ma`rifatli qilish yo`lida juda katta hayrli ishlarni olib borganlar.

Yuqorida nomlari keltirilgan o`zbek shoiralari haqida Ibrohim Davron tomonidan 1914-yilda “Ash`ori nisvon” (Xotinlarning she`rlari) nomi bilan Qo`qonda kitob chop qiladi. Bu kitob ustida olim 20 yil davomida izlanish olib boradi. Bu ktobga turli yillarda yashagan 23 ta shoirani 44 ta she`rini o`ziga jam qilgan kitob hisoblanadi. Bu kitobda quyidagi shoiralarning sher`lari misol tariqasida keltirilgan: “Nozima Xonim, Zebuniso Begim, Vasilat Xonim, Nozuk Xonim, Osima Xonim, Sadiqa bibi, Nigor Xonim, Jahon Oyim, Sobira bibi, Fayzi bibi, Xirotiy bibi Maryam, Saida bibi, Bibi Xamida, To`ti qiz, Sharaf Xonim, Bibi Xanifa, Layli Xonim, Zebuniso (mashxur Zebuniso Begim emas, balki, qo`qonlik Zebuniso Xonimdir), Rizvon bibi, Turg`oqli Xadiya bibi, Nadima, Mohzoda Begim, Nodira Xonim” kabi ijodkor ayollar haqida ma`lumot beriladi.

Biroq “Ash`ori nisvon”da she`rlari bosilgan shoiralarning tarjimai hollari haqida muallif hech qanday ma`lumot bermagan. Faqat ayrim she`rlarining ostiga xijriy hisobi bilan tarixi ko`rsatilib, “Xo`qand” deb qo`yilganki, shunga qarab bu shoiraning qo`qonlik ekanligini yoki she`r yozilgan paytda Qo`qonda bo`lganligini bilib olamiz. Kitobda keltirilgan shoiralarning ijtimoiy qiymati shundaki, ular Zebunisobegim va Nodira kabi malikalar bo`lmasdan, oddiy o`zbek xotin-qizlaridir. Bu shoirlar o`zbek xotin-qizlari qismati, dard-u-alamlari, jabr-jafolarini o`z boshlaridan kechirganlar. Bularning she`rlari hayol, tasavvur mahsuli emas, balki, o`z boshlaridan kechirgan taqdirларini aks ettiradi. Shuning chun ularning nomlari kuyga solingan kulfatning mujassam etgan timsolidir, shuning uchun bu

xassos opalarimizning sheʼrlari, xajviyalari lablarimizga kulgu bagʻishlaydi.

Kitobdagi sherʼlar oʻzbek xotin-qizlarining taqdiri haqidagi hasratnomalar boʻlmay, balki butun butun musulmon olamidagi ayollar taqdiriga aloqador dard-u-alamlardir. Masalan, Bibi Xamidaning “Dogʻli yurak” sheʼrini musulmon olamidagi koʻp xotin-qizlar oʻz dardlari deb oʻylashlari mumkin. Nima boʻlganda ham bu oʻzbek adabiyoti tarixida shoirlar hayoti va ijodiga bagʻishlangan bir asar hisoblanadi. Asarda shoirlarning sheʼrlaridan parchalar berilgan.

Shunday qilib, Qoʻqon xonligi adabiyoti vakillarini asarlarining mazmuniga koʻra ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga penegirik yoʻnalishda qalam tebratuvchi, ikkinchi guruhga xalqning orzu-umidlari, intilishlarini kuylovchi ijodkorlar mansub boʻlgan.

Xonlik madaniy hayotining boshqa oʻzbek davlatlaridan farqli jihati unda shoirlarning faol ishtirok etganligidir.³⁴ Xuloda qilib aytganda Oʻrta Osiyoda mavjud boʻlgan 3 ta xonlikning har birida ijtimoiy hayot bir-biriga oʻxshash boʻlgan. Bu xonliklar ichida ayollarning turmush tarzi bir xilda kechgan. Chunki bu davrda mavjud boʻlgan mustabid tuzum ayollar huquqlarini cheklab qoʻygan edi. Bunday cheklovlarga qaramasdan xonliklardagi ayollar oʻrtasida adabiy muhit yaxshi rivojlangan edi. Buning yaqqol namunasini esa yuqorida nomlari keltirib oʻtilgan shoirlar misolida koʻrishmiz mumkin.

³⁴X.Boboyev. Oʻzbek davlatchiligi tarixi. 2-kitob, T.:, “Fan va texnologiya”,2009, 111-b.

II-Bob. Qo`qon xonligida ayollarning boshqaruvdagi o`rni

2.1. Davlat boshqaruvida malikalarning tutgan roli

Qo`qon xonligi tarixida malikalar ham uning faoliyatida katta xizmat qilganlar. Malikalar nafaqat ta`limga balki, uning taraqqiyoti uchun ham katta ishlarni olib borganlar. Shunday malikalardan biri Mohlaroyim-Nodira bo`lib, o`zbek xalqi madaniyati tarixida o`chmas iz qolirgan shaxsdir. Nodira 1808-yilda Umarxonga turmushga chiqadi. Xon saroyida yashab ijod etgan Nodira xonlikning ichki va tashqi siyosatida o`zining maslahatlari bilan Umarxonga ko`maklashadi. 1821-yilda Umarxon vafot etgach, taxtga ularning farzandi Muhammad Alixon o`tiradi. Shu vaqtdan e`tiboran Nodira davlatni boshqarish ishlarida muhim ro`l o`ynay boshlaydi. Ammo afsuski, Nasrulloxon tomonidan 1842-yilda Qo`qonni egallaganidan so`ng, Nodirani ayol kishi ekanligiga qaramasdan vaxshiyona o`ldiriladi. Nodira ko`pchilik sharq mutaffakirlari singari siyosiy muommolarga bag`ishlangan mahsus risola yozib qoldirmagan, u o`zining teran fikrlari va siyosiy qarashlarini she`rlarda mujassam etgan. Siyosiy hayotning faol ishtirokchisi bo`lgan Nodira jamiyatda xukm surayotgan jabr-zulm, adolatsizlik, zo`ravonliklardan xabarsiz bo`lishi va bu illatlarga o`z munosabatini bildirmasligi mumkin emas edi.³⁵

Uning fikricha jamiyatda kishilarning bo`ysundiruvchi va bo`ysunuvchilarga bo`linishi Xudoning irodasidir. Xudo bir

³⁵ Qodirova M. She`riyat va muhabbat malikasi. – T.: “Ma`naviyat”, 1999, - 3-b.

kishini podshoh boshqalarni esa fuqaro qilib yaratgan. Jumladan u Umarxonga bunday deb yozadi: “Ul xudovandaki, qildi yeru ko`kni oshkor, shukrkim, bizni gado qildi, seni sulton etib”.³⁶

Shoira bu bilan podshohni Xudoning yerdagi vakili, jamiyat, davlat, fuqaro hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo`lgan shahs deb biladi. Shoira zulm o`tkazish, adolatsizlik, zo`ravonlik davlat boshlig`i uchun yot bo`lgan xususiyatlardan degan g`oyani o`z davri hukmdorlari ongiga singdirishga harakat qilgan. Uning ta`kidlashicha, podshohning asosiy vazifasi, fuqaro to`g`risida g`amxo`rlik qilishdir. Mazkur fikrni, shoira yuqoridagi fikri bilan hamohang ravishda o`zining tuyrmush o`rtog`I Umarxonga murojati quyidagicha bayon qiladi: “Bo`ylakim mumtoz erursan barcha sultonlar aro, shod qilg`il bandalarning ko`nglini ehson etib”.

Agar davlat boshlig`i o`z fuqarosiga g`amxo`rlik qilmasa, hokimiyatni egallab qolishga loyiq emas, uning podshohligidan hech qanday foyda yo`q dey-di. Faqat fuqaro haqida g`amxo`rlik qiluvchi, unga rahm-shavqat etuvchi podshohgina egallab turgan lavozimiga loyiqdir, uning ta`sis etgan qonun-qoidalari amalda harakat qilishga haqlidir degan g`oyani ilgari suradi.

Nodiraning fikricha, davlatni boshqarish va hokimiyatni amalga oshirishning asosiy qoidasi adolatdir. Adolat tantana qilgan mamlakatdagina tinchlik, osoyishtalik, farovonlik, do`stlik haqida so`z bo`lishi mumkin. Aks holda mamlakatning ravnaqi,

³⁶Boboyev X. O`zbek davlatchiligi tarixi. 2-kitob. – T.: “Fan va texnologiya”, 2009, - 331-b.

fuqaroning baxt-saodatga erishishini ta`minlab, bo`lmaydi. Faqat adolatli davlat boshlig`Igina jabr-zulmga, haqsizlikka barham berishi mumkin.³⁷

Nodira olimlar, shoirlar, ayniqsa, shoiralarni o`z himoyasiga oladi, ularga homiylik ko`rsatadi. O`z ijodida xotin-qizlarning chekkan iztirobi, fojiali hayoti, alamli kechinmalarini, shuningdek, xavfsizlik, jaholat, tengsizlikdan shikoyat qiladi va ayniqsa, xotin-qizlar taqdirining achchiq oqibatlarini bayon qiladi.³⁸

Nodira davlat va mamlakat ishlarida tadbir va adolat bilan idora qilishda homiylik namunalarini ko`rsatarkan, bu yillarda mamlakatda birmuncha osoyishtalik saqlanadi. Qo`shni o`lkalar va ularning hukmdorlari bilan savdo-sotiq va boshqa sohalarda hamkorlik amalga oshiriladi. Shoira mamlakatda qurulishlar sohasida olib brogan ishlari, madaniyat va adabiyot borasida ko`rsatgan tashabbuskorliklarini o`zining devoni debochasida shunday ta`kidlatdi: “...Sayyidu sodot, mashoyixu ulomolardin tuhaf va hidiya birla duolar oldim. Masokin va benavolarga xayru ehsonlar birla bahra etkurdim. Karam va ato xonidan fuqaro xalqini mamnun va mustag`in aylab, marhamat va shafqatlar ko`rguzdim. Va javorida madrasai faysazor ulumi diniy talabalarig`a bino qildim. Jiddu jahd birla sipohiylarg`a anjom, fuqarolarg`a orom yetkurdim. Mamlakatni obod, mustamandlar ko`nglini shod qildim. Ulamoi din rivojlarig`a imdod yetkurdim, to shari sharif rivoj topdi, zuhd

³⁷ J.Toshquluv. O`zbek xalqlari siyosiy-huquqiy fikrlari tarixidan. T.:“O`zbekiston”. 1996,-5-b.

³⁸ X.Boboyev. O`zbek davlatchiligi tarixi. 2-kitob. T.: “Fan va texnologiya”. 2009.332-b.

ahlig`a ixlos va aqidatan zohir qildim, to din va millat kamol topdi. Fazlu donnish qabilasig`a shafqat marhamatidin oncha inoyatlar ko`guzdimkim e`tabor darajasig`a taraqqiy qildilar. Mushafi sharif va kutubi diniy va rasoyili yaqiniy ko`p yozdirdim. Barchasini xolisanillah vaqf qildim”.³⁹

Zamondoshlaridan shoir Xotifning ma`lumot berishicha, Mohlaroyim “mamlakat nizomi va xalq ehtiyojlarini tadbir va adolat rasmda kamoli aql va farosat bilan shunday olib bordiki, tamomi umaro va fuzalolar davrasida yagonai zamona, “Nodirai davron” bo`lib, tanildi va xalqlar tahsiniga sazovor bo`ldi”. Nodira xalq taqdiriga achinib, davr fojialariga, zulm va tengsizlikka bo`lgan nafratlarini she`rlarida ifodaladi. Amaliy faoliyatda esa, o`ziga yaqin mansabdor shahslar va ulomolar yordamida Muhammad Alixonni xayrli ishlarni amalga oshirishga ko`dirib turadi. Madrasalar, masjidlar, xonaqohlar, qog`oz ishlab chiqaruvchi korxona, bekatlar, karvonsaroylar barpo ettirdi. Insofli va diyonatli ilm-ma`rifat egalarini, hunarmandlarni o`z himoyasiga oldi, ularga qo`lidan kelganicha yordam ko`rsatdi. Nodira nodonlik, bag`ritoshlik va pinxona yovuzliklardan ko`p nolidi. Nodira din-u-islom qoidalariga ham qattiq rioya qildi. Zero, islom dini bo`yicha gunohning avvali ahloq qoidalaridan chekinmoq, imon va diyonatga xilof ish tutmoqdir. Shoir o`zining yaxshilikga qaratilgan sa`y-harakatlarini to`xtatmadi, doimo ezgulik urug`larini sochishga harakat qildi. Nodirabegim tarixda o`tgan temuriy malikalardan ibrat olgan bo`lsa ajab emas.

³⁹ Muhabbat va ozodlik kuychisi. Metodik va bibliografik qo`llanma. Nodirabegim tavvulidining 215 yilligi munasabati bilan. T.;2006, 7-b.

Bunga misol qilib, Saroymulixonim ham Amir Temurga turmushga chiqqanidan so`ng, u mamlakatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida faol ishtirok eta boshlagan. Saltanat ishlarida o`z maslahatlari bilan qatnashib turar, ayniqsa ilm-ma`rifatga alohida e`tibor ila qarar, tolibi ilmlarga homiyli qilar edi. Amir Temurning harbiy yurishlarida ko`pincha Saroymulxonim birga bo`lgan. Tarixiy manbalar bergan ma`lumotlarga ko`ra, o`ta ziyarak, tadbirkor Saroymulxonim saltanatni boshqarishda paydo bo`lgan ayrim muommalarni hal qilishda ham faol ishtirok etgan. Amir Temur Saroymulxonimning oqilona maslahatlariga doimo ehtiyoj sezib turgan. Naql qilishlaricha, Amir Temur Eronga qarshi yurish boshlaganda, Isfaxonning qamali ko`pga cho`zilib, qo`shinning ozuqa bilan ta`minlashga mablag` yetishmay qoladi. Nihoyat, Amir Temur Samarqandga chopar yo`llab, Saroymulxonimga maktub jo`natadi. Maktub qisqa bo`lib: “Qo`shinning zaxirasi tugadi, xazinadan zar yuboring” deyilgan. Saroymulxonim maktub mazmunidan ogoh bo`lgach, maktubning orqa tomoniga: “Ulug` amir, zaringiz tugagan bo`lsa, siyosatingiz ham tugadimu?” deb yozadi va uni choparga tutqazadi. Saroymulxonimning kinoyali so`zidan qattiq mutassir bo`lgan shox nihoyat bir qarorga keladi: lashkargohda so`yilgan qo`y, qoramol, ot va tuya suyaklarini o`sha kuniyoq yig`dirib, turli hajmlarda yasattirib, qiymat belgilaydi va unga po`lat muhrni qizdirib tamg`a bostiradi. buni esa muvaqqat pul o`rnida muomalaga kiritishga farmon beradi. Natijada, shahar va qishloqlardan suyak pulga qo`shin uchun oziq-ovqat sotib olinadi. Tez kunlarda Isfaxon shahrini egallagach, suyak pullar zar bilan almashtiriladi. Bu hikoya orqali Saroymulxonimni qanchalik

Amir Temurga o`z fikrini mustaqil bildira olishi va davlat boshqaruvida qanchalik shohga yordam berganligi va faol ishtirok etganligini ko`rish mumkin.⁴⁰

Temuriy malikalardan yana biri Gavharshodbegim ham turmush o`rtog`I Shohruh Mirzoning davlat ishlarida ham hukmdorga yordam bergan. Shohruh Mirzo taqvodor bo`lganligi uchun uchun ko`p vaqtini toat-ibodat va kitob mutolaasiga sarflar edi. Saltanat va devon ishlarini o`ktam va tadbirkor xotini Gavharshodbegim boshqarar edi. Bu ziyrak ayol qaynotasi Amir Temur vafotidan so`ng sekin-asta saltanat ishlarini o`z qo`liga oladi. Zero, Shohruh Mirzoning o`zi ham xotini Gavharshodbegimning donoligiga tan berar, saltanatni boshqarishda oqilona va tadbirli maslahatlariga ehtiyoj sezib turardi. Shu bois saltanatga doir ko`pgina ishlar malikaning ixtiyoriga topshirilgan edi.

Shu o`rinda Nodirabegim va Gavharshodbegimning yana bir taqdirilarida o`xshashlik bor. Ikkala malika ham ham ayanchli tarzda qatl qildirilgan. Nodirabegimni 1842-yilda Buxoro amiri Nasrulloxon tomonidan Qo`oqn bosib olingach, Nodirabegim, ikkita o`g`li va nabirasini xon tomonidan vaxshiylarcha o`ldirib yuboriladi.

Gavharshodbegim ham 80 yoshida taxt uchun bo`layotgan urushlar paytida chevarasi sulton Ibrohim Mirzoni hukmdor Abu Sayid Mirzoga qarshi isyon ko`tarishga undaydi. Gavharshodbegimni bu harakatidan habar topgan Sulton Abu Sayid Mirzo malikani chopib o`ldirishga farmon beradi. 1457-yili Gavharshodbegim chopib o`ldiriladi va o`zi

⁴⁰ Ahmedov I. Dunyo malikalari. T.; "Yangi asr avlodi", 2012. 16-b.

qurdirgan madrasa yonidagi Boysunqur dahmasiga dafn etiladi. Bu ikki malikaning taqdiriga Saroymulixonimni ham taqdirida yani o`limida ozgina bo`lsada o`xshashlik bor. Farqi shundaki Saroymulxonim nevara kelini tomonidan zaharlab o`ldiriladi. Bu malikalarnig hayot yo`llari ibrat bo`ladigan darajada. Sababi bu malikalar mamlakat hayotida aholining yaxsgi yashashlari va farovon turmush kechirishlari uchun harakat qilganlar. Madrasalar, masjidlar, xonaqohlar, qorixonalar, karvonsaroylar, bekatlar tashkil qilganlar. Shu darajada ko`p savobli va sahovatpeshalik bilan olib brogan ishlariga qaramay ularni juda ayanchli taqdir taqozosi bilan ayanchli o`lim topadilar.

Uch hukmdor muhabbatiga sazovor bo`lgan malika...

Qo`qon xoni Amir Umarxon vafotidan so`ng taxtga o`tirgan uning o`g`li Muhammad Alixon bir ishga qo`l uradi va oxir-oqibat ana shu ish unga ajalni yetaklab keladi. Yeti o`lchab bir kesadigan, oqillik bilan ish yuritadigan Amir Umarxon va hassos shoira Nodirabegimning o`g`li Muhammad Alixon o`ta kaltabinlik bilan ko`r-ko`rona ish yurita boshlaydi.

O`z rejasini amalga oshirish uchun saroyning sodiq a`yonlari, otasi davrida ko`plab ezgu ishlarga bosh bo`lgan, amirga sidqidildan xizmat qilgan amaldorlarning ko`pchiligini ishdan bo`shatadi. Qaroriga bo`ysunmaganlarni qatl qildiradi. Bu hol esa saroyning ichida shohga bo`lgan adovat va husumatning paydo bo`lishiga asos bo`ladi. Qatl qilganlarning yaqinlari, o`z mansabidan ayirilgan saroy ulomolari va din peshvolari Qo`qon xoniga qarshi fitna uyushtiradilar. “Qassob Amir” deb nom

qozongan Amir Nasrulloxon uchun bu ayni muddao edi. Qo`qon xonligi amaldorlari tomonidan yuborilgan, Muhammad Alixon “o`z onasiga uylanib” kofir bo`lganligi ham qistirib o`tilgandi.

Nasrulloxon darhol Qo`oqn xonligiga qo`shin tortadi. Ham qo`shin sonining ko`pligi, ham tajribali bo`lganligi bois jangda Buxoro amirining qo`li baland keladi. Qassob amir 1842-yilda “Kofir Muhammad Alixon”ni, ukase Sulton Muhammadxon va onasi Nodirabegimni qatl ettiradi. Tarixiy manbalarda yozilicha, Umarxon xonligi davrida Podshohxon ismli, husni jahonga doston bu qizni yoqtirib qoladi. Podshohxon Farg`ona beklaridan biri Mahmudbekning qizi bo`lgan qizga Amir Umarxonning ishq tushgach, u saroyga tortiq qilinadi. U amirning o`limidan sal avval haramga keltirilgan. Podshohxon hali o`n yashar qizaloqlik paytidayoq ko`pchilik beklarning unga ishq qutshgan. Qiz juda yosh bo`lganligi boir amir Umarxon ham balog`at yoshiga yetgandagina unga egalik qilishni diliga tugib qo`yadi. Biroq amir Umarxon ko`p o`tmay noma`lum kasallikdan vafot etadi. Taxtga o`tirgan o`n besh yashar Muhammad Alixon o`tiradi. Podshohxonning chiroyi uni ham o`ziga rom qiladi. U qanday qilib bo`lmasin bu go`zalga yetishish yo`lini qidiradi. Bu paytda sohibjamol kanizakning ta`rifu tavsifi Buxoroga tarqaladi.

Kanizakka yetishish orzusi tinchlik bermagan Muhammad Alixon bu qizga otasi ham befarq bo`lmaganini bilsa-da, nafsu ustunlik qiladi, din peshvolaridan maslahat so`rab, najot kutadi. Otasining yaqinlari “garchi otangiz bu qizni nikohiga olmagan bo`lsa-da, unga

uylanishni niyat qilgandi, shu bois Podshohxon sizga ona qatori, uylonmog`ingiz gunoh” deb ruhsat bermaydilar. Shundan keyin Muhammad Alixon bu sirdan voqif kishilardan asta-sekin qutula boshlaydi. Ba`zilari saroydan chetlashtiriladi, ba`zilarini qatl ettiradi. Endigina mansabga mingan, amirning g`azabidan qo`rqqan amirlar esa “Jannatmakon padari buzrukvoringiz agarchi bul ojizaga mayl ko`rguzgon epsalar-da, oning birla bo`lmog`ondurlar. Binobarin, bu ojiza siz janobi oliylariga mashru` bo`lg`ay” deya fatvo berib yuboradilar.

O`z niyatiga erishgan Muhammad Alixon Podshohxon bilan ko`ngilxushlikni boshlab yuboradi. U kanizakning husnu jamoliga maftun bo`lib, qolgandi.

“Jabrlangan ulomolar adovat o`tida yonib, “onasiga uylangan, kofir bo`lgan amir” haqidagi xabarni Buxoro xoni Nasrulloxonga maktub orqali yetkazadilar”. Buxoro amiri Amir Nasrulloxon (1826-1860) o`z davrining eng qattiq qo`l va zolim hukmdorlaridan biri bo`lgan. U toju-taxt uchun taxtga da`vogar barcha yaqinlarini birma-bir qilichdan o`tkazgan va johil bo`lganligi sababli xalq unga “Qassob” deya laqab qo`ygan. Lekin Nasrulloxonning bunday berahligiga qaramasdan uni rus tarixchilaridan biri shunday deb yozgan edi: “Ajoyib aql egasi, eng uddabron va mohir siyosatchilardan bo`lmish Nasrullo Buxoroda hukmronlik qilgan 34 yil davomida Turkistondagi barcha xalqlar ustidan alohida bir jozibali qudratga ega bo`ldi”.⁴¹

⁴¹ Respublika Markaziy Davlat arxivi, 715-jamg`arma, 1-qayd, 23-ish, 175-sahifa

Qo`qonni bosib olgan “Qassob Amir” taxtga Ibrohim parvonachini jabru-zulmi Buxoro amiridan ham oshib ketadi. Bu zulmlarga chiday olmagan Qo`qon xalqi ko`p o`tmay qo`zg`olon ko`tarib, Umarxonning Talasdagi jiyani Sharalixonning o`zlariga xon etib saylaydilar.

Amir Nasrulloxon ham Muhammad Alixonning “gunohkor” bo`lishiga sababchi kanizakka oshiq bo`lib qoladi. Juvonni o`zi bilan Buxoroga olib ketadi. Biroq, ko`p o`tmay, qassob amir hukmronligi tannazzulga yuz tutadi. Xonlar hayotida yuz bergan bunday o`xshash ko`ngilsizliklarni qarang: Podshohxon xaramga keltirilgach, amir Umarxon noma`lum kasallikdan vafot etadi.

Ne-ne mashaqqatlar bilan uning vasliga yetishgan Muhammad Alixon Nasrulloxonning tig`iga uchrab halok bo`ladi.

Sohibjamolni Buxoroga, o`z haramiga olib ketgan amir Nasrulloxonning hukmronligi parokandalikka yuz tutadi, o`zi esa sirli tarzda vafot etadi.

Kanizakning qadami yetgan joyda falokat yuz berishiga bir necha bor guvoh bo`lgan amaldor-u beklar Podshohxonni “shumqadam kanizak” deya e`tirof etib, qatl qildiradilar.

Beqiyos go`zalligi sabab dilxiraliklar keltirgan “shumqadam kanizak” go`zalligi bois o`z boshiga yetadi.⁴²

Oloy malikasi...

⁴² www.wikipedia.uz

Qurbobjon O`sh yaqinidagi Modi qishlog`ida tavallud topdi. Boshlang`ich ma`lumotni qishloqda oldi. Qo`qon xonligi vaziri Olimbek dodxox Xasanboy o`g`li Qashqarda harbiy sarkarda sifatida xon topshiriqlarini bajarib, qaytishda Modi qishlog`ida dam oladi va Qurbonjon bilan tanishadi. 1832-yilda Olimbek Qurbonjon dodxoxga uylanadi va bir yil o`tgach, uni xon saroyiga olib kelib, Nodirabegimga tanishtiradi. Xon saroyidagi tartib-qoidalar uning dunyoqarashini o`zgartiradi. Shu davrda 5 o`g`il va 2 qizning onasi bo`lib, ularni voyaga yetkazadi. Ammo 1863-yilda ular oilasiga musibat tushdi. Turmush o`rtog`i olimbek dodxox hokimiyat uchun olib borilgan kurashlarda ishtirok etib, fitnada o`ldiriladi. Erining vafotidan so`ng, Qurbonjon ma`lum bir vaqt Andijon hokimi lavozimida ishlaydi. So`ngra farzandlarini olib, o`zi tuyg`ulub o`sgan Modi qishlog`iga qaytadi. Po`latxon qo`zg`olonini bostirishdagi jasurligi uchun Buxoro amiri Muzaffar unga “Dodxox” harbiy unvonini beradi. Amir Muzaffarxon yordamida Qo`qo xonligi taxtini qayta egallagan Xudoyorxon 1865-yilda Qurbonjon Dodxoxni Oloy hokimi etib saylaydi. Qurbonjon Oloy o`lkasida tinchlik-totuvlikni o`rnatadi. Podsho Rossiyasi bilan bo`lgan urushlarda jasorat ko`rsatadi. Skobelev 1876-yilda Qurbonjon bilan uchrashadi va yarash sulhini imzolaydi. Skobelev Qurbonjon dodxoxni Oloy hokimi sifatida tan oladi. Qurbonjon dodxoxni bu qahramonligi va tuzgan tinchlik sulhi Qashqarni ruslar tasiridan saqlab qoladi.

Makkor rus bosqinchilari bu jasur, oqila, matonatli ayolni qurol kuchi bilan yengishga yo`l topolmay, fitna-al dovga o`tishadi. Turkiston general-gubernatori fon Kaufman Qurbonjonning ikki

sarkarda o'g'li Abdullabek va Botirbekning faoliyatini cheklaydigan aldov shartnomaga imzo chekishga majburlaydi. Boshqa o'g'li va ikki nabirasini Subirga surgun qilinadi. Kenja o'g'li Qamchibekni esa O'shda dorga osadilar. Dodxoh o'g'lining dorga osilayotganini o'z ko'zi bilan ko'rib turgan. Soqchilarsiz qatl joyiga kelib, o'g'lining jazoga tortilishini miq etmay kuzatib turgan va yalinib kelish haqidagi ruslarning umidini puchga chiqargan. Agar o'shanda Qurbonjon dodxoh bitta ishora qilib qo'yganida Oloyning jamiki qirg'izlari-yu o'zbeklari o'tlanib, uning o'g'lini qutqarib qolishardi.

Ammo dono ayol xalqning minglab o'g'lonlari qurbon bo'lganidan ko'ra , o'z o'g'lining qatliga guvoh bo'lib turishni afzal ko'rgan.⁴³

Qurbonjon dodxoh umrining oxirida O'sh shahri yaqinidagi qishlog'ida yashadi va 1907-yilda vafot etdi.⁴⁴

Xulosa qilib aytganda, yurtimiz ayollari nafaqat oilada, adabiy muhitda, balki davlat boshqaruvida ham o'z o'rinlariga ega bo'lganlar. Ayollar aynan boshqaruvda ishtirok etmagan bo'lsalarda, xukmdorlarni har doim qo'llab-quvvatlab, yaxshi ishlarni olib borishlari uchun ko'makchi bo'lganlar. Bu qatorda malika Nodirabegim ham turmush o'rtog'I Umarxon vafot etganidan so'ng o'g'li Muhammad Alixonga davlat ishlarini boshqarishda unga yordam bergan.

⁴³ <https://uzxalqharakati.com>

⁴⁴ Sh. Xolnazorov va boshqalar. Tarixiy shaxslar hayyotidan lavhalar. "Farg'ona", 2014. 86-87-b.

2.2. Ziyoli ayollarning xonlik boshqaruviga qo'shgan xissalari...

Qo`qon xonligidagi malikalar nafaqat davlat boshqaruvida xonlarga ma`naviy yordam berganlar, balki, ular mamlakatda juda ko`plab savobli ishlarga boshchilik qilganlar.

Qo`qon xonligi tarixida mana shunday sahovatpeshalik ishlarini boshlab bergan malikalardan biri, Qo`qon xonligining birinchi hukmdori Shohruhbiyning rafiqasi Nozikbibi sanaladi.

Shohruhbiy hayotligining so`nggi yillarida, yani taxminan 1719-yilda o`zbek urug`larini yanada jipslashtirish maqsadida u Qirq urug`ining oqsoqolining qizi Nozikbibiga uylanadi.

Shundan so`ng Nozikbibi mavqei o`zgarib, Nozik Oyim deb atala boshlangan.⁴⁵ Shohruhbiyning ushbu xotini uchun Laylakxona (shaharning janubiy qismida) mavzesining bir tomonida yer-mulk in`om qiladi va bu joyda saroy barpo qiladi . Ikki yillar chamasi vaqt o`tib, 1721-yillar atrofida Shohruhbiy vafot etgach, Nozik Oyim bu saroyga doimiy yashash uchun o`tadi. O`ziga inom etilgan saroy atrofidagi ekin maydonlarni atrof qishloqlardagi nochor dehqonlarga foydalanishga beradi. O`zi O`g`li Abdurahmonxonni tarbiyalash bilan birga qishloq qizlarini maktab ochib, savodini chiqarish bilan shug`ullanadi. O`z yerlaridan kelgan daromadlarni yetimxona ochib, miskinlarni qo`llab-

⁴⁵ Izoh: Qo`qon xonligida "Oyim" unvoni xonlarning xotinlariga, "Oyimcha" esa xonning opa-singillari va qizlariga berilgan .

quvvatlaydi, qishloq maktabi harajatlariga sarf etadi. Ushbu saroy asosida yuzaga kelgan qishloqqa xalq “Oyimqishloq” deb nom beradi. Keyinchalik bu joy xonlikning boshqa aslzoda ayollari uchun ham tabarruk joyga aylanib, Qo`qon malikalari bu joyda ma`lum muddat, yashashni o`z burchlari va sharafi deb bilardilar. Hozirgi davrda bu joylar shaharning “Ashurali Zohiriy” mahallasiga to`g`ri kelishini tadqiqotchilar qayd qilganlar.

Xonlik tarixida shunday yuksak fazilatlari bilan nom qoldirgan malikalardan yana biri bu Qo`qon xonligi hukmdori Norbo`tabiy (1763-1798)ning xotini, yani ming urug`I oqsoqilining qizi Zuhra Oyimdir. Malika hukmdorga turmushga chiqqan paytida undan mahr sifatida katta yer-mulk, hozirgi “Vaqq Chorsu” mahallasidagi Sobitqadam ko`chasi atroflarini egasiga aylanadi. Shahar ahli malikani ming urug`idan bo`lganligini hisobga olib, unga “Mingoyim” deb nom beradilar. U bu mulkdagi hovlilaridan birida maktab ochib, otinbibilarni yollab qizlarni o`qitadi. Bir qism terlarini turli masjid, madrasa, xonaqox va qabristonlarga vaqq qilib beradi. Mingoyim Nozik Oyimning nabira kelini bo`lganligi uchun Oyimqishloq yaqinidagi o`z yerlarini qayinbuvisidan ibrat olib, yersiz dehqonlarga taqdim etadi. Bu joyda vujudga kelgan qishloq “Oyim qo`rg`oncha” deb nomlanadi.

Qo`qon xoni SHERALIXONNING (1824-1844)ning xotini, yani bo`lg`usi Qo`qon xoni Xudoyorxonning opasi YORQIN OYIM ham shunday sahobatpesha malikalardan edi. Xalq tomonidan unga XOKIM OYIM deb nom berilgan. 1843-yilda unga mahr sifatida katta yer-

mulk inom etiladi. Bu yer-mulk “Chek Xokim Oyim” deb atalgan. Xokim Oyim bu mulklarni “Chalpak” madrasasiga vaqf qilib beradi. Olimlarning fikricha bu joylar hozirgi shaharning “Alisher Navoiy” mahallasidagi “Xalqlar do'stligi” ko'chasiga to'g'ri keladi.

An'anaga ko'ra Qo'qon xoni Olimxon (1798-1810) o'z hukmronligi davrida ukasi Umarxonni 1806-yilda Mohlaroyimga uylanishi munasabati bilan keliniga mahr uchun katta yer-mulk inom etgan. Mohlaroyim Andijon hokimi Rahmonqulibekning qizi bo'lib, 1792-yilda tug'ulgan edi. U keyinchalik yetuk shoir bo'lib yetishadi, va Nodira tahallusi bilan el orasida mashhur bo'ladi. Unga berilgan yer-mulk “Chek Mohlaroyim” deb ataladi. U bu mulkda ilm-marifatni rivojlantiradi, yosh ijodkor qiz-juvonlarni ijodini qo'llaydi. Bundan tashqari Mohlaroyim ham Qo'qon malikalari udumlariga rioya qilib, qaynonasi Zuhra Oyim (Mingoyim) va momoqaynonasi Nozik Oyimdan ibrat oladi. U ham Oyim qishlog'i mavzesiga yana bir qo'rg'on tashkil qilib, nochorlarni qo'llaydi, dehqonlarni o'zlariga foydalanishiga yer-mulk berib, bolalarni savodini chiqaradi. Buni natijasida ushbu zaminda paydo bo'lgan yangi qo'rg'onchaga xalq “Mohlaroyim” qo'rg'oni deb nom beradilar.⁴⁶

Qo'qon xonligi tarixida sahovatpeshaligi bilan nom qoldirgan malikalardan yana biri bu “Qozoq Oyim” nomli malika bo'lib hisoblanadi. Qozoq Oyim nomi aslida Qo'qon xoni

⁴⁶ Dadaboyev M.Ya. Xo'qandi latif mahallalari va ko'chalarining nomlanishi tarixi. F.: Farg'ona, 2007. 146- bet

Xudoyorxonning birinchi xotini shagʻzoda Nasriddinbekning onasi Mingli Oyimning xalq tomonidan berilgan nomidir. Mingli Oyim qipchoq urugʻi sardori Musulmonqul mingboshining qizidir. Xudoyorxon ham ushbu malikaga uylangan paytida mahr sifatida unga kattagina yer-mulk inom etgan. Bu joylarda yuzaga kelgan mavze esa “Qozoq Oyim mavzesi” deb nom olgan. Bu joylar hozirgi shaharning Abu Tayyib Xoʻqandiy mavzesining Ozodlik mahallasining sharqiy qismlariga toʻgʻri kelishi taʼkidlanadi. Qozoq Oyim ham oʻzidan avvalgi tarixiy davrlarda oʻtgan malikalardan oʻrnak olib, bu mulkidagi ekin maydonlarni yersiz dehqonlarga boʻlib bergan. Ular farogʻati uchun bogʻ-sayrgohlar tashkil etgan.

Shu oʻrinda aytib oʻtishni oʻrinli deb topdikki, bu malikalarning ayrimlari vafotidan soʻng, “Daxmayi Modarixon” (onalar, ayollar) maqbarasiga dafn etilganlar. Bu maqbaraning nomi mashxur oʻzbek shoirasi Nodirabegim nomi bilan bogʻliq. Qoʻoqn xonlari onasi va turmush oʻerogʻi Nodira, uning turmush oʻrtogʻi vafotidan keyin ham saroy hayotida katta ahaniyatga ega boʻldi. Uning sherʻlari oʻzbek sheʼriyatining oltin xaiznasidan joy olgan boʻlib, uning farmoyishi bilan qurilgan yodgorliklar hali hanuz Qoʻoqnning diqqatga sazovor joylari qatoriga kiradi. Nodira turmush oʻrtogʻi Umarxoning vafotidan bir necha yil oʻtib uning onasi olamdan oʻtadi. Shoir qaynonasi hurmatiga atab uning qabri ustidan maqbara qurishni buyuradi. Keyinchalik esa ushbu maqbara xon avlodi ayollarining maqbarasiga aylanadi. Avvaliga tarjimasi “xon onasi” maʼnosini anglatuvchi, Modari-xon maqbarasi Fargʻona milliy

me'morchiligi xazinasini tashkil qilgan. Arxitektura majmuasi gumbazi peshtoqli binoni, machit va hovlini o'z ichiga olgan. Biroq o'tgan 2 asrda ajoyib maqbaradan faqat kirish peshtoqi saqlangan.

Katta bo'lmagan peshtoq, baland bo'lmagan gumbaz, mayolikali mayin o'simlik naqshli eshiklari qurulishini jozibali qilib ko'rsatadi. Asosiy kirish qismidagi cho'qqi oppoq ganjidan qilingan kaskadli o'ymakorlik bilan ishlanan. Ikkita qirrali binolar, fasadi Samarqanddagi kabi Bibixonim machiti, har ikkala bino ham buyuk ayollarga bag'ishlanganligini eslatadi. O'ng tomondagi olti qirrali plitkalarining birida maqbara maqbaraning qurilganlik sanasi - 1241-yil hijry, yani 1825-yilda ko'rsatilgan. Manbalarga ko'ra Modari-xon maqbarasini qurilishi va bezatilishida Rishton kullolar va ganj o'ymakorligi bo'yicha mahalliy ustalar ishtirok etganlar. Maqbarani bezatlashida eng e'tiborli tomoni bu uning gumbazining ichki qismining ajoyib tarzda ezatilganligidir. Modari-xon Nodiraning o'zini maqbarasiga ham aylantirilgan. XIX asrning 40-yillarida Qo'qon xonlarining Buxoro bilan vodiy ustida tuganmas urushi boshlangan 1842-yilda Qo'qon dushman siquviga dosh berolmaydi. Fuqaro va dehqonlar mustaqillik va ozodlikdan mahrum bo'lganlariga chiday olmaydilar. Ularni faqat Nodiraning she'rlari kayfiyatlarini ko'tara edi. Jumladan 1842-yildagi Buxoro-Qo'qon urushi davrida Buxoro hukmdori Nasrulloxon (1826-1860) tomonidan qatl etilgan, Nodirabegim yani Mohlaroyim ham shu maqbaraga dafn etilgan edi.⁴⁷ XX asr o'rtalarida shoiraning xoki

⁴⁷. Bobobekov X. Qo'qon xonligi tarixi. T.:Fan,1996. 230-bet.

yangi joy oq marmarli arka ko`rinishida bunyod etilgan yodgorlikga ko`chiriladi. Demak, bu maqbarada Muhammad Alixon (1822-1841) hukmronligi davridan keyingi xonlar shajarasiga mansub, aslzoda ayollar dafn etilgan.

Bildirilgan mulohazalarni umumlashtirgan holda, aytish mumkinki, Qo`qon xonligi tarixida Nozik Oyim, Mingoyim, Oftoboyim, Xokim Oyim, Mohlaroyim, Mingli Oyim kabi qator saxovatpesha malikalar yashab o`tg`anlar. Ular o`z davri sharoitidan kelib chiqib, o`z atrofidagi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj tabaqalarini qo`llab-quvvatlaganlar. Bu yo`lda muhtoj dehqonlarga yer-mulk, taqsimlab berganlar, o`g`il-qizlari uchun esa bog`lar, chorbog`lar tashkil etganlar. Oddiy xalq vakillari ham o`z o`rnida ularga mehr bilan qaragan, ularni ulug` nomlar bilan sifatlab, ism berganlar, ularning saroy, qo`rg`onlari yonida o`z mahallarini vujudga keltirganlar. Mazkur aslzoda ayollarning olib borgan sahovatpeshalik ishlari tarixi davrlar o`tib, ma`lum darajada unutilgan bo`lsada, lekin ulardan xotira, toponimlar (joy nomlar) tarzida bo`lsada, bizning kunlarimizgacha yetib keldi. Ularning sahovatpeshalik faoliyatini bugungi avlod uchun ham hamisha yaxshi ibrat andozasini o`taydi deb hisoblaymiz.

III-Bob. Qo`qon xonligida xotin-qizlarning o`qitish tizimi

3.1. Xonlik davrida ayollarning o`qitilishi

Ilm o`rganish va o`rgatishning fazilati haqida shunday hadis bor. Rasululloh aytganlar: "...bir kishi Olloh ilmining (islomni) teran

o`rganadi, teran tushunib, undan manfaatlanadi va Olloh yuborgan hidoyatni o`zi o`rganib, o`zgalarga ham o`rgatadi. Ikkinchi bir kishi bir ilm o`rganib, odamlarga o`rgatadi, ammo o`zi amal qilmaydi, uchinchi bir kishi mutakabbbirlik qilib, o`zi ham o`rganmaydi, o`zgalarga ham o`rgatmaydi. Bulardan birinchisi mo`min, ikkinchisi fosiq, uchichisi kofir” ushbu hadisdan ma`lum bo`ladiki, Rasululloh (s.a.v) ilm sohiblari ichida Olloh yuborgan ilmni teran o`rganib, unga o`zi amal qilib, ma`nfaatlanib, boshqalarga ham o`rgatganini haqiqiy mo`min, musulmon deb hisoblagan. Olloh ilmni o`rgansayu boshqalarga o`rgatsayu, lekin unga o`zi amal qilmasa, undaylarni fosiq, ahloqsiz, yomon, gunohli ishlarni qiladigan deb bilgan va atagan. Rasululloh (s.a.v) haqiqiy ilm sohibi Olloh yuborgan ilmni chuqur o`rganib, o`zgalarga ham o`rgatib va Olloh ato etgan ilmga o`zi ham qatiiy amal qilishi shart qilib ko`rsatgan..⁴⁸

Buxoro amirligi, Qo`qon va Xiva xonliklarida xalq ta`limining tuzulishi va faoliyati deyarli bir xil bo`lgan. Ularda madrasalar, maktablar va qorixonalar mavjud edi. O`zbek xonliklari davrida O`rta Osiyoda ikki turdagi maktab mavjud edi: quyi-maktab va oliy-madrasa. Maktablar masjidlar qoshida va xususiy uylarda tashkil etilgan. Maktablar qizlar uchun alohida, o`g`il bolalar uchun alohida bo`lgan. Odatda boshlang`ich maktabda o`qish, yozish, yani savod o`rgatilar va diniy matnlar yodlash bilan birga, arifmetika va

⁴⁸ Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buhoriy. Sahihi Buhoriy. Al-jomi as-sahih (ishonarli hadis). 1-kitob. – T.: O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat milliy nashriyoti, 2008,- B.24

adabiyot o`qitilar edi. Qorixonalarda esa asosan ko`zi ojizlar o`qib, Qur`on, doston va she`r-u g`azallarni yodlagan.

O`zbek xonliklaridagi madrasalarda o`qish, yozishni o`rgangan bolalar madrasalarda o`qitilgan. Madrasalarda o`quv dasturi asosan uch bosqichda: boshlang`ich (adno), o`rta (avsat), yuqori (a`lo) bosqichlarida olib borilib, unda uchta til (arab, fors, turkiy) mukammal o`rgatilgan. Madrasalarda Qur`on ilmi (o`qish usullari, qiroat, tavsif), fiqh (islom huquqshunosligi), xandasa asoslari (geometriya), arab tili sarfu nahvi (grammatikasi), notqlik san`ati, aljabr, ilmi nujum, ahloq, falsafa, mantiq, adabiyot, jo`g`rofiya, tarix, tabobat fanlari o`qitilgan. Madrasani bitirganlar qozi, uning yordamchisi, masjid imomi lavozimlarida ishlaganlar, mudarrislik qilganlar. O`g`il bolalar maktablaridan farqli ravishda, qizlar maktablarida asosan o`qitishda uy-ro`zg`or tutish sirlari va pazandachilik o`qitilgan. Dunyoviy fanlar esa kamdan-kam hollarda o`rgatilgan. Xonlikdagi talim tizimi Buxoro amirligidan deyarli farq qilmagan. Xonlikda ham Buxorodagi kabi tabiiy va dunyoviy fanlarga unchalik e`tibor berilmagan. Qo`qon shahrining o`zida 15 ta madrasa faoliyat yuritgan. Lekin shunga qaramasdan Buxoro amirligida talim olgan kishilarning mavqei bu yerda o`qiganlarnikidan obro`liroq bo`lgan. Madrasalarda bilim olish mumkinligi, bu yerda ham diniy, ham ilmiy, ham madaniy fanlar bo`yicha dunyoga tanilgan mudarrislar, olimlar bor bo`lganligi uchun ham Turkistonda turli mamlakatlardan ko`plab talabalar kelib o`qiganlar.

Qo`qon xonligida malikalar xalqni ma`rifatli qilish uchun o`z mablag`lari hisobidan ko`plab madrasa va masjidlar bunyod etgan.

Madrasa soʻzi arabcha soʻz boʻlib, “oʻrganmoq” degan maʼnoni anglatadi.⁴⁹ Ularga yer-mulklarni inom qilib, xonlikdagi taʼlim tizimiga oʻz xissalarini qoʻshganlar. Qoʻqon xonlari jamiyatni yuksaltirish gullab-yashnatish niyatida, ayniqsa Qoʻqon mulkida koʻplab madrasalar bunyod etgan. Qoʻqon shahrida Umarxon “Jome” madrasasi, onasi Izzat Bibi “Mingoyim” madrasasini, Umarxonning suyukli xotini Nodira esa “Mohlar Oyim” va “Chalpak” madrasalarini qurdirgan. Muhammad Alixon Qoʻqon shahrida va Quva qishlogʻida oʻz nomi bilan yuritiluvchi madrasalar barpo qilgan. Xudoyorxon uchta madrasa qurdirgan. Qoʻqonda “Madrasayi Oliy”, Asakada Xudoyorxon madrasasi, Chustda “Xon” madrasasi Xudoyorxonning onasi Xokimoyim Qoʻqon shahrida ikkita: “Xokim Oyim ” va “Xomtama” madrasalarini bunyod etgan. Andijonga hokim boʻlib turgan Xudoyorxonning oʻgʻli Nasriddinbek 1867-yilda “Nasriddinbek” madrasasini va uning yonida hodimlar va talabalar besh vaqt namoz oʻqiydigan masjid qurdirgan.⁵⁰

Qoʻqon xonligida xon avlodlari - ayollar qurdirgan oʻquv yurtlaridan biri Xudoyorxonning onasi qurdirgan Xokim Oyim madrasasi edi. Madrasa Qoʻqon shahrining katta bozorida 1874-yilda bunyod etilgan va oʻsha yili unga Xokim Oyim tomonidan katta mulk vaqf qilib beriladi. Vaqfnomada Xudoyorxonning ikkita muhri va oʻsha davr qozilarining muhrlari bosilgan. Xokim Oyim oʻzi bunyod qildirgan madrasasiga 1874-yilda Qoʻqon shahrining Yaxshilik mahallasida joylashgan bitta karvonsaroy va 56 ta

⁴⁹ Ilmiy ahborotnoma 2016-yil 4-son (98) 42-bet.

⁵⁰ Alimov I. Qoʻqon xonligi mdrasa va maktablari tarixi, T:, “Fan”. 2017. 59-b.

do`konni vaqf qilib beradi. Shu bilan birga, madrasaga Marg`ilon viloyatining Xonobod, Telemen, Iso Avliyo cheki, Tojikqishloq, Qang`li, Jomogoy yo`li qishloqlarida 20 ming tanobga yaqin ekiladigan yer, 2 ming tanobga yaqin ekilmaydigan yerni vaqf qilib beradi.⁵¹

Xokim Oyim madrasasining vaqf mulklaridan tushgan yillik daromadi 1000 tilla atrofida bo`lgan.

Ming Oyim madrasasi mutavallisi 1877-yilda shahardagi vaqf mulklarini 92 tillaga ijaraga bergan.

Madrasa qurdirgan ayollardan yana biri Muhammad Alixonning onasi Nodirabegim edi. U 1837-yilda Qo`qon shahrining Xaydarbek mahallasida Mohlar Oyim nomli madrasa bunyod etadi. Mohlar Oyim madrasasiga Nodirabegim shahardagi 1 ta karvonsaroyini, 48 ta do`konlari bilan va yana 22 ta do`konni vaqf qilib bergan.⁵²

Qo`qon xonligining Marg`ilon viloyatidagi maktablar shahar va qishloqlar bo`lish mumkin. Shahar maktablari qishloq maktablaridan qisman farq qilgan. Shahar maktablarini asosan, moddiy tomondan baquvvat tadbirkor tabaqa vakillari qurdirgan. Marg`ilon viloyatining Marg`ilon shahrida 88 ta maktab bo`lgan. Ularning 70 tasi o`g`il bolalar, 18 tasi qiz bolalar maktabi edi. Qizlarni Otinoyilar, asosan, o`zlarining uylarida o`qitgan. Qizlar maktablarida ham o`g`il bolalar maktablarida o`qitiladigan darslar o`tilgan. Barcha o`g`il bolalar maktablarida domulla mahalla masjidlarining imomi yoki so`fisi bo`lgan. Ular masjiddan moyana olganlari sababli bolalarni

⁵¹ 66-bet

⁵² Alimov I. Qo`qon xonligi mdrasa va maktablari tarixi, T:, "Fan". 2017. 65-b.

o`qitgani uchun maktabdan alohida yillik mehnat haqi olganlar. Biroq mavjud odatga ko`ra o`quvchilarning ota-onalari domulla va otinoyilarga ikki xil mahsulot yoki pul ko`rinishida sovg`a qilishgan. Ota-onalar farzandlarini birinchi bor maktabga o`qishga olib kelganlarida hamda yil davomida har payshanba domullaga “Payshanbalik” sovg`a qilishgan. “Payshanbalik” asosan masalliq yoki bir-ikkita yopgan nondan iborat bo`lgan.⁵³

Yozyovon volostida 13 ta o`g`il 2 ta qiz bolalar maktablari bo`lgan.⁵⁴

Maktabdor domlalar, imom so`filarning savodli xotinlari (Otinoyilar) o`z uylarida maktablar ochib, qizlarni o`qitgan. O`quvchi har payshanba kuni imkoniyatiga qarab domlaga osh harajatini yoki kambag`al oilaning bolasi esa 1-2 ta non olib kelgan. O`quvchilar bir kitobni tugatib, ikkinchi kitobni o`qishga o`tishganida har bir ota-ona domlaga imkoniyatiga qarab shaharda pul, qishloqdag`alla bergan. Domulla sovg`a olganidan keyin, o`quvchilarga uyda bir necha kun dam olishlariga ruhsat bergan. O`qituvchi – Otinoyilar mustaqil ravishda bilimdon, otinbuvilardan saboq olib, malakasini oshirganlar. Maktab o`qituvchilari yoshlarni savodxon qilish bilan birga o`qimishli, ilmli, tarbiyali qilib yetishtirgan.

⁵³Alimov I. Qo`qon xonligi masjid va madrasalar tarixi. 2009. “Fan” 114-b.

⁵⁴Alimov I. Qo`qon xonligi masjid va madrasalar tarixi. T., 2017. “Fan”. 116-b.

Namangan uezdi maktablari ro'yhatida asosan o'g'il bolalar o'qiydigan maktablar ro'yhatga olingan. Shu bilan birga, 10 taga yaqin qiz bolalar maktablari ro'yhatga olingan. Qiz bolalar maktablarida odatda, o'qituvchi otin oyining xonadonida bo'lgan. Qiz bolalar maktabi o'g'il bolalar maktabidan kam bo'lgan. Namangan viloyatida 2 ta otin oyilar dars beradigan qiz bolalar maktabi va 7ta tashkil qilingan yili ko'rsatilmagan qiz bolalar maktabi qayd qilingan. Qiz bolalar maktablari to'g'risidagi bor ma'lumotlari keltirilgan.

1858-yilida bunyod etilgan Varzik volosti Varzik qishlog'idagi qizlar maktabi Xamida Otin Nabiyeva honadonida faoliyat ko'rsatgan. Maktabda 18 nafar qizlar otin oyidan saboq olgan. 1876-tilda tashkil topgan maktab Varzik volosti Korkadon qishlog'idagi Mulla Muhammad Kamol honadonida ochilgan bo'lib, unda bir nafar otin oyi saboq bergan va 8 nafar qizlar, 4 nafar o'g'il bolalar o'qigan. Xujjatda 7 ta otin oyilar honadonida ochilgan qizlar maktablarining ochilgan yillari ma'lum emas. Bu maktablar quyidagilar: Rahima Bonu qizlar maktabida 15 nafar, Xadicha bibi maktabida 15 nafar, Malika bibi maktabida 8 nafar, Xamro bibi maktabida 12 nafar qiz saboq olgan. Mulla Dovud honadonida ochilgan qizlar maktabida 12 nafar qizga bitta otin oyi saboq bergan. Tashkil qilingan yili ko'rsatilmagan qizlar maktabining ko'pchilik qismi XIX asr Qo'qo xonligi davriga oid maktablardir. Chunki Namangan

uezdi maktablari ro'yhatidagi o'quv yurtlarining uchdan ikki qismi XIX asr Qo'qon xonligi davriga oid maktablardir.⁵⁵

Uvaysiy maktabi- Marg'ilon va uning atrofida yashovchi qizlarga talim-tabiya bergan. Keyinchalik Nodira bilan tanishganidan so'ng u bilan Qo'qonga ketadi va o'sha yerda kanizaklarni o'qitadi. Ilmiy musiqadan qizlarga dars bergan. Uvaysiy qizlarga she'r yozishning uslublarini o'rgatadi. Muallimlik kasbiga Uvaysiy ixlos bilan qaraydi. Ilmga tashna qizlarga sidqidildan ta'lim beradi. Bu hol uning g'zallarida ham o'z ifodasini topgandi. Uvaysiydan Jahon bibi, Hayot, Baqo, Dilorom ismli qizlar shoiradan ilm o'rganganlar. Ular ham jahon otin yordamida fors-tojik, turkiy tillarda yuksak saviyadagi she'rlar yozishga qodir shoiralar bo'lganlar. Uvaysiy xon saroyida 3-4 yilgina yashaydi xolos, keyinchalik boshqa hududga ko'chib o'tadi. Shoir bu yangi joyda yana o'zi sevgan mashg'ulotini davom ettiradi. Shu bilan birga Nodiraning iltimosiga ko'ra uning himoyasidagi tutqunlarni ham o'qitadi. Uvaysiy qizlar xat-savod o'rgatish bilan birga, sozanda-xonanda qizlar guruhiga ixlosi bor qizlar ichidan yig'ib, ularga san'atning ayrim sirlarini o'rgatadi. Yangi hovlida dars berayotgan bir paytda Uvaysiy Nodira huzuriga borib qaytsa, eshigining qulfi singan, xona ichidagi tanburlar yo'q ekan. Uvaysiy surishtirib bilsa, bu ig'vogarlarning ishi bo'lib chiqadi. bu hususda Nodira Umarxon orqali tanburlarni joyiga qaytarishga muvaffaq bo'ladi.

Ma'lumki qizlar maktabida talabalar zehnini tarbiyalash, bilimlarini mustahkamlash, uzoq esda saqlab qolish, tafakkur qobiliyatini

⁵⁵ 261-b.

mustahkamlashga ham katta e'tibor beriladi. Shu maqsadda chiston (topishmoqlar)ni yechish, muvashsharlar yozish, adabiy asarni sharhlash va izohlash kabilardan foydalanilgan. Bu usullar talabalarni rag'batlantirgan, uning o'qishga bo'lgan qiziqishini va qobiliyatini oshirgan. Chunonchi, Jahon Otin (Uvaysiy) mashxur shoira bo'lish bilan birgalikda mohir muallima bo'lgan. U o'z darslarida qizlarning zehnini tarbiyalashda quyidagi chiston, muommo, muvashshahlardan foydalangan (chiston-topishmoq, muommo-she'rida kishi noma, sana va shu kabilar yashiringan janr, misralar boshidagi harflarni to'plaganda kishi nomi chiqadigan she'r-muvashshah) deb yuritiladi.⁵⁶

Mashxur shoira Dilshod Qo'qonda maktab ochgan. U o'zining maktabdorlik faoliyati haqida bunday deb yozgan: “mening suhbatdoshlarim va dugonalarim aqlli qizlar va shoirlar edi. Ellik bir yil davomida men maktabdorlik qildim va yiliga o'rtacha 20 tadan 30 tagacha o'quvchilarim, sakkiz yuz to'qsonta qizlarning savodini chiqardim, bulardan deyarli chorak qizmi she'riyatga qobiliyatli bo'lib, shoira va o'z davrining aqlli va dono odamlari edi.”⁵⁷

Andijon viloyati Farg'ona vodiysidagi rivojlangan voha bo'lgan. Andijon viloyatining Bo'taqora mavzeida xotin-qizlar maktablari ham bo'lgan. Xojar bibi maktabida 20 nafar qizlar ta'lim olgan.

⁵⁶ Pedagogika tarixi va g'oyalari (o'quv uslubiy qo'llanma), Samarqand, 2014. 72-b.

⁵⁷ X.Bobobekov. Qo'qon tarixi, T.:, “Fan”, 1996. 167-b.

Bitta maktabda odatda bitta o'qituvchi dars bergan. Faqat ayrim maktablarda ikkita domulla faoliyat yuritgan.

Samar Bonu maktabi – buyuk Al-Buxoriyning “Bilimdan o'zga najot yo'q va boshqa bo'lmag'ay” o'gitiga, aniqrog'I falsafasiga amal qilib, ota-bobolarining yo'lidan boradi. Maktab ochadi. Y'oq, qizlar uchun o'ziga hos dorilfunun yaratadi. Buning uchun bu oqila, fozila, jasur va go'zal qizda bilim keragidan ortiq bo'lgan. Samar Bonuning maktabi bir-biri bilan tutash bo'lgan 4x8 metrli o'quv xonasidan va har xil adabiy, ma'rifiy tadbirlar o'tkazishga mo'ljallangan 8x18 metrli chiroyli ayvondan tashkil topgan edi. Bonu Markaziy Osiyoda tarixidagina emas, o'ziga xos ajoyib o'quv uslubini yaratgan, madrasa hamda o'g'il bolalar o'qiydigan maktablardan tubdan farq qilgan ta'lim muassasasini kashf etgan pedagog sifatida iz qoldirdi. Uning pedagogik faoliyati oliygohlarda Uvaysiy, Dilshod Barnolarning ta'limga qo'shgan hissalarini kabi o'rganiladi. Ularning ta'lim sohasidagi faoliyati “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” darsligiga kiritilgan. Bonu maktabining o'quv dasturi o'sha davr o'g'il bolalar o'qiydigan maktablarnikiga o'xshash bo'lgan. Lekin yuqorida nomlari keltirilgan ma'rifatparvar shoiralar singari arab tilidagi matnlarni kamroq o'qitib, darslarni ona tilida olib brogan. O'quvchi qizlarga Xaftiyak va Chor kitob qisqa o'rgatilgan. Bonuning maktabida boshqa shoira-o'qituvchilar kabi ko'proq fors-tojik va turk tillarida ijod qilgan shoirlar A. Navoiy, M. Fuzuliy, Xofiz, Mirza Bedillarning asarlari o'rgatilgan. Shogirdlarining qo'llari biroz xatga kelishi bilan “xat mashqi” darsida (uni “husni xat” darsi ham deyishardi)

ularga o'z she'rlarini aytib yozdirganlar. Shunday qilib qobiliyatli shoira qizlarining she'riyatga xavaslarini uyg'otgan. Otinbibi o'quvchi qizlar bilan bo'lgan munosabatlarida alohida mayinlik va samimiylikni o'zida mujassam eta olgan.

Maktabda o'quvchi qizlar uchun o'zlashtirish qiyin bo'lgan arab yozuvini yoki so'zlarini o'rgatishda, har xil o'xshatishlardan, topishmoqlardan keng foydalanilgan. Masalan, "nun" harfini ichida tuxumu bor qush iniga o'xshatganlar. Bu uslub o'quvchilarga murakkab bo'lgan dars materiallarini oson yodda saqlab qolishlariga yordam bergan. Maktabning xashamatli ayvonida tez-tez adabiy, ma'rifiy kechalar o'tkazilib turilgan. She'rxonlik, mushoiralar avjiga chiqqan. O'sha davrning yetuk kishilari, otinbibilari bunday tadbirlarda ishtirok etganlar va o'ziga xos dorilfununga aylantira olganlar. Qobiliyatli qo'oqnlik shoira Qambarniso singari shoirlalar bilan uchrashuvlar o'tkazib borilgan. Bonu hayotining oxirgi davrida va uning vafotidan keyin ukase Salohiddin Soqib bu dargohga tez-tez tashrif buyurib turgan. Unga g'azalxonlikda hech kim teng kela, olmagan. She'rxonlikni yuqori san'at darajasiga ko'tara olgan shoir bo'lgan. U g'azal o'qiganida ishtirokchilarning hayajonlanmagan, yig'lamagan birorta odami qolmagan.⁵⁸

Qu'ron oyatlari va Xadislarda har bir mo'min- musulmonni ilm o'rganishga da'vat etilgan. Qu'ronda ilm so'zi ko'p marotaba takrorlangan. Shuning uchun islom dini O'rta Osiyoda, jumladan Qo'qon xonligida musulmonlar orasida ilm

⁵⁸ <https://mingtepa.uz//samarbonu>

o`rgatadigan maktab, qorixona va madrasalar keng tarqalgan. XVI-XIX asrlarda Qo`qon xonligida bu o`quv yurtlarning mavjudligi o`sha davrlarda madaniyat, ma`rifat, ma`naviy ishlar ancha taraqqiy etganligidan dalolat beradi. Islom dini talabi asosida barcha musulmon yoshlari maktabda o`qigan. Demak, tadqiq qilinayotgan davrda Qo`qon aholisi O`rta Osiyoning boshqa joylaridagi aholi kabi o`qimishli, savodxon, odob-ahloqli bo`lgan. Maktab, qorixona, madrasalar XVI-XIX asrlarda Qo`qonda ziyoli kadrlarni yetishtirishda, madaniyat, ma`naviy hayotni rivojlantirishda muhim rol o`ynagan.

Qo`qon shahrida boshqa shaharlarga nisbatan maktablar soni ko`proq bo`lgan. Bu esa qo`qonliklarning aksariyat ko`pchiligi savodli bo`lib, o`qish va yozishga usta bo`lganligidan dalolat beradi. O`qituvchilar o`z uylarida ochgan xususiy maktablaridan tashqari barcha o`quv yurtlari, turli shahs va tashkilotlar tomonidan xayriya qilingan vaqflardan tushadigan daromad ishlar edi. Ularning odatida masjidlar birinchi o`rinda turar edi, deyarli barcha maktablar masjidlar qoshida ochilgan edi. Umuman olganda Qo`qon xonligining Farg`ona vodiysi hududida yashaydigan aholining savodlilik darajasi 1875-yilga nisbatan 53%ga yetardi.⁵⁹ Bu esa XIX asr uchun, boshqa mamlakatlarga nisbatan ancha yuqori, ko`rsatgichdir. Shuning uchun ham ko`plab mashhur ilmiy kishilar Qo`qondan chiqqan.

Uvaysiy, Dilshod va bonu O`rta Osiyo maorifchilari qatlamining eng qobiliyatli hamda yorqin uch vakili edi. Ularning pedagogika

⁵⁹ Xudoyorxonzoada . Anjum at-tavorix. T.; "Fan va texnologiya ", 2014-y. 326-b.

sohasidagi ijodlari hozirgi va kelajak avlodning rivojlanishiga qaratilgan o'tmishning ma'naviy merosida ulkan xissa bo'lib qoldi.

Qo`qon xonligi 1876-yil 19-fevralda tugatiladi. Uning o`rnida Turkiston general-gubernatorligiga qarashli Farg`ona viloyati tashkil qilinadi.

Sovetlar davlati tashkil topganidan keyin xalqni savodli qilish uchun xalq maktablarini tashkil qiladi. XX asrning 20-yillarida o`z mohiyati bilan o`zbek xotin-qizlarini tutqinlikdan ozod qilishga qaratilgan harakat boshlanadi. Ma`lumki, Turkiston xotin-qizlari hayoti asrlar mobaynida musulmonchilik qonun-qoidalari va ana`nalari asosida kechgan o`ziga hos xususiyatlarga ega bo`lgan, jumladan aksariyat hollarda uy-ro`zg`or ishlari va farzand tarbiyasi bilan shug`ullanishgan. Sovet hukumati bunday turmush tarziga diniy xurofot sifatida qaradi. Shu bilan birga ayollarning erkaklar bilan teng huquqliligiga ularni tor oila muhitidan ozod bo`lib, keng ijtimoiy-siyosiy hayotga tortilishi g`oyasi ilgari surildi. Shu narsa aniqki, jamiyat rivojlanib borar ekan, odamlarning ongi ham o`zgarib qoladi, turmush tarsi yangilanadi. U zamonga moslashadi. Shu ma`noda o`zbek ayollarining pranjidan ozod qilish yangi tuzum oldidagi muhim vazifalardan ekanligi tabiiy.

Biroq bu masalani eng avvalo, jamiyat fuqarolari orasida keng ko`lamli tushuntirish mahfiy yo`llar orqali hal qilish kerak edi. Jadidlar rahbari M.Behbudiy, F.Xo`jayev, Fitrat, A, Cho`lpon bu masalani etishni o`z oldilariga muhim vazifa qilib qo`ygan edilar. Shu maqsadda tashkil qilingan respublika, viloyat, tuman, shahar sovet tashkilotlari qoshidagi xotin-qizlar bo`limlarida dastlab umuman tushuntirish olib borilgandi. Uning natijasida xotin-qizlar ijtimoiy foydali mehnatga, jamoatchilik tashkilotlariga faol tortilla boshlaganlar.

Uni o'zbek xotin-qizlari hursandchilik bilan kutib oldi. Chunki ochiq yurish, yorug' olamni ko'rish, ilm olish, erkaklar bilan teng huquqli bo'lish ularni azaliy orzusi edi. Biroq VKP (b) MQ O'rta Osiyo byurosining 1926-yil sentabrdagi mahsus qarori asosida bu harakatni suniiy ravishda tezlashtirishga kirishildi. Oqibatda bu harakat "Hujum" nomini oldi. Biroq bu harakat afsuski, shoshmashosharlik, mamuriyatchilik yo'li bilan mahalliy shar-sharoitlarni yo'li bilan xalq udumlarini, urf-odatlarini e'tiborga olmasdan jadallashtirildi. Bunga hattoki erkak kommunistlar ham tayyor emas edilar. Xotin-qizlarni ijtimoiy-hayotga jalb qilish harakati dastlab, ancha sezilarli yutuqlarga erishib bordi. 1927-yil bahoriga kelib, 100 ming ayol paranji tashlaydi. Ming-minglab ayollar korxonalarga turli yumushlarga tortildilar. Ular orasida ko'plab traktotchilar, brigadirlar, kolxoz raislari, klub va kutubxonaning mudirlari tayyorlandi. Jumladan 1927-1929-yillarda sudlarning xalq maslahatchilari orasida o'zbek ayollari 563 kishiga yetdi. Shu o'rinda taqqoslash uchun bir eslab o'taylik, xonliklar davrida shariat qoidalari bo'yicha ayollar guvohlikka hatto chaqirilmagan. Chaqiriladigan holat bo'lsa ham, ikkita ayol guvohligi bitta erkak guvohligiga teng bo'lgan. Ayollar asosan oilaviy masalalarda guvohlikka chaqirilganlar. Sovetlar davriga kelib esa, ayollarning o'zlari sud jarayonida bevosita uning maslahatchilari sifatida ishtirok eta boshladilar. Paranji tashlagan ayollar uchun 32 ta savodsizlikni tugatish maktablari joriy qilinadi. 1927-yilda birgina Qo'qon okrugida bunday maktablar soni 75 taga yetkazildi. Toshkentning Eski shahar qismida 1409 ta o'quvchini qamrab olgan 35 ta ayollar maktablari faoliyat ko'rsatdi. Biroq bu borada qo'llanilgan zo'rlash, majburlash o'zining salbiy natijalarini bermasdan qolmadi.

Joylarda xotin-qizlarni o'ldirish holari ro'y berdi. Masalan Oltariq tumanidagi Poloson qishloqliklar dehqon Abduqodir Xojimatov xotini o'ldirib qo'yadi. Shunday qiyinchiliklarga qaramasdan o'zbek xotin-qizlari paranjidan voz kechib, ijtimoiy hayotning faol n ishtirokchisiga aylanadilar. Garchi bu "Hujum" harakatini sovet davlati o'zining chirkin g'oyalarini amalga oshirish va ayollar mehnatidan samarali foydalanishni tashkil qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan bo'lsalarda, ular o'z maqsadlarini ochiq oshkor qilmasdan o'zbek ayolari diniy xurofot ostida qiynalib yashamoqdalar degan uydirma asosisda o'z maqsadalariga yetadilar. Nima bo'lgan taqdirda ham o'zbek ayollari mana shu davrdan boshlab erkaklar bir qatorda yelkama-yelka turib mehnat qila boshlaydilar. Bu esa ayollarimizning jamiyat hayotida yana bir pog'onaga ko'tarilganlaridan dalolat beradi.

Bildirilgan fikrlardan shuni bilib olish mumkinki, Qo'qon xonligida boshqa xonliklarga qaraganda madrasa, maktablar soni bilan ulardan farqlanib turgan. Shu sababli bu yerda o'qimishli insonlar ko'pchilikni tashkil qilgan. Shu sababdan bo'lsa kerak, xonlikda ayollarning o'qitilishiga ham alohida e'tibor berilgan. Bu borada malika Nodirabegim boshchiligidagi ayollar adabiy muhitining namoyondalari tomonidan ochilgan qizlar maktablari misol bo'ladi. Bu maktablarda o'qitishni shaxsan malika Nodirabegimning o'zi nazorat qilib turgan. Xukmdorlar vafot etganidan so'ng ularning haramida bo'lgan ayollar ham o'zlarining shahsiy uylarida qizlarni o'qitib savodini chiqarganlar. Malikalar o'zlarining mablag'lari hisobidan ko'plab madrasa, masjidlar barpo qilganlar. Ularning harajatlarini esa malikalarning o'zlariga tegishli bo'lgan mol-mulkklarini bu yerlarga vaqf qilib berganlar.

Vaqflardan kelgan daromadlarni esa maktab, madrasa va masjidlar uchun sarfi uchun ishlatganlar.

3.2 O'zbekistonda bugungi kunda xotin-qizlarga berilayotgan e'tibor...

Ayol – mo'tabar ona, opa-singil, suyuqli va vafodor yor, sirdosh, maslahatdosh, tarbiyachi ustoz, siyosatchi, tashkilotchi, tadbirkor va avlod davomchisidir. Bir so'z bilan aytganda, ayol – go'zallik timsolidir. Jamiyatning sog'lomligi, uning barqarorligi va porloq kelajagi yo'lida ishlarni amalga oshirishda ayollarning o'ni beqiyosdir.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, “Ayol go'zal bo'lsa – olam go'zal, ayol baxtli bo'lsa – oila, butun jamiyat baxtli bo'ladi. Biz hech qachon unutmasligimiz zarur – ayolini e'zozlagan erkak baxtli bo'ladi, ayolini hurmat qilgan millat kam bo'lmaydi. Ayolni hurmat qilsak, millatni hurmat qilgan bo'lamiz”.⁶⁰

Bugun mamlakatimizda ayollarning jamiyatdagi tutgan o'ni va haq-huquqlari haqida fikr va iftixor bilan juda ko'p misollarga, fakt va dalillarga tayangan holda uzoq gapirish mumkin. Darhaqiqat, mustaqillikka erishgan ilk onlarimizdanoq, xotin-qizlarga bo'lgan yuksak darajadagi e'tabor va e'tirof davlat siyosati darajasiga olib chiqilgani endilikda o'zining yuqori samaralarini ko'rsatmoqda. Biz mamlakatimiz taraqqiyoti, jamiyatimiz rivojini ayollarsiz, ularning faol ishtirokchisiz tasavvur eta olmaymiz. Shu

⁶⁰ Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T., 2015. – 231-b.

bois yurtimizda ayol huquqi, erkinligi, tengligi eng oliy, muqaddas qadriyat darajasiga ko'tarildi. Keying vaqtlarda O'zbekistonda bu borada keng ko'lamli, katta hajmdagi izchil islohotlar amalga oshirib kelmoqdalar. Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini qat'iy kafolatlovchi mustahkam qonunchilik bazasini shakllantirildi va bu jarayon tobora takomillashib borilmoqda . bir so'z bilan aytganda, ayolga izzat-hurmat ko'rsatish – millatga ehtirom ko'rsatishning bosh omiliga aylandi.

Binobarin, jamiyatda siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va taraqqiyoti ayollarga, yoshlarga, oilaga bo'lgan munosabat va e'tabor bilan bog'liq. Shuning uchun ham mamlakatimizda ayollarning jamiyatdagi o'rnini va rolini mustahkamlash, ularning bilimli, zamonaviy mutaxassis, malakali kasb egalari bo'lishlari hamda sog'lom va mustahkam oila qurishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, birinchi navbatda, sog'lom bola tug'ulishi va uni tarbiyalash, onalar va bolalar sog'ligini muhofaza qilish kabi masalalarga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda ayollarga ko'rsatilayotgan alohida e'tabor va g'amxo'rlikni yana shunda ko'rish mumkinki, 1999-yil – Ayollar yili, 2000- So'g'lom avlod yili, 2001 – Onalar va bolalar yili, 2005-yili – Sihat-salomatlik yili, 2012-yil – Mustahkam oila yili, 2013-yi – Obod turmush yili, 2014-yil – Sog'lom bola yili deb e'lon qilinishi, amalga oshirilayotgan ezgu ishlar, tadbirlar zahirida ham ayolga hurmat, ehtirom, ma'naviy va jismoniy kamoloti xususida fikrlash, qayg'urish hissi borligi yaqqol namoyon bo'ladi.

2019-yil 19-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi "Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish to'grisida"gi ma'ruzasida yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san'at, sport, ahborot texnologiyalari, kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish bo'yicha belgilab berilgan 5 tashabbus:

1-tashabbus – yoshlarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, istedodini yuzaga chiqarish.

2- tashabbus - yoshlarni jismoniy chiniqtirish ularning sport sohasida qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.

3-tashabbus – aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali fodalanishini tashkil etish.

4-tashabbus –yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida ktobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha, tizimli ishlarni tashkil etish.

5-tashabbus –xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalari.

Yurtboshimizning tashabbuslariga binoan hozirgi kunda yurtimizda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida boshqaruv va ishlab chiqarish sohalarida 62 % dan ziyod ayollar ishlamoqda. So'nngi 10 yil davomida kichik va xususiy korxonalarni soni 1.6 barobarga o'sgan bo'lsa, ularning 40% dan ko'prog'ini kichik biznes subektlari rahbarlaridir. Qishlloq xo'jaligida esa, ayollarning

band aholining deyarli yarmini tashkil qilmoqda. Tadbirkorlik tashabbusini amalga oshirish doirasida butun mamlakat bo'ylab maishiy xizmat ko'rsatish punktlari, go'zallik salonlari, sog'lomlashtirish muassalari ochilmoqda. Bu o'z navbatida ayollarning uy yumushlarini yengillashtirish va ular uchun zarur qulayliklarni yaratishga xizmat qilmoqda.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning 45%ni xotin-qizlar tashkil qiladi. Jumladan, davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1 ming 400 ga yaqin opa-singillarimiz rahbarlik qilmoqda. Ulardan 17 nafari senator, 16 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati bo'lib, 1 ming 75 nafari esa xalq deputatlari mahalliy kengashlari tarkibida faoliyat yuritmoqda.

O'nlab opa-singillarimiz "O'zbekiston Qahramoni", "O'zbekiston fan arbobi", "O'zbekiston xalq o'qituvchisi", "O'zbekiston xalq shoiri", "O'zbekiston xalq artisti" singari davlatimizning yuksak faxriy unvonlariga, orden va medallariga sazovor bo'lgan. Ularning orasida 500 nafardan ziyod fan doktorlari va akademiklar, minglab fan nomzodlari o'z bilimi va iste'dodi bilan yurtimiz ravnaqiga astoydil xizmat qilib kelmoqdalar.⁶¹

Darhaqiqat, ayol salomatligi va ayol baxtining to'kisligi, avvalo, oila mustahkamligini esa jamiyat taraqqiyotining asosiy omilidir. Hech bir mamlakatda oila taqdiri, xotin-qizlar kelajagi hamda ularning jismoniy va ma'naviy barkamolligini ta'minlash

⁶¹ Sh. Mirziyoyev. Xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutqi. 2018-yil 7-mart.

masalasiga bizning yurtimizdagidek e`tabor qaratilmaydi. Keying yillarda ayollarimizning o`rtacha umr ko`rish Yoshi 67 yoshdan 75 yoshga qadar uzaygani yuqoridagi fikrimizning yorqin dalilidir. Shuning uchun ham ham aholi salomatligi, xususan, onalar va bolalar sog`ligini muhofaza qilish borasida mamlakatimizda erishilgan yutuqlari 2011-yili Toshkent shahrida o`tkazilgan “O`zbekiston ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli: “Sog`lom ona – sog`lom bola” mavzuidagi xalqaro simpoziumda qator xalqaro tashkilotlar, jumladan, Jahon sog`liqni saqlash tashkiloti, Yunisef tomonidan yuksak darajada baholanadi”.

Birinchi Prezidentimizning 1995-yil 2-martdagi “O`zbekiston Respublikasi davlat va ijtimoiy qurulishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmoni ayollarning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti masalalarini hal qilishga, ularning davlat va jamoat boshqaruvidagi ishtirokini oshirishga keng jalb etish uchun keng imkoniyatlar ochib berdi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ayollarga e`tabor sezilarli darajada oshdi. Xususan, respublikamiz xotin-qizlarining ma`naviy-ma`rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarida faol ishtirok etish imkoniyatlari kengaydi. Mamlakatimiz aholisining yarmidan ko`prog`ini tashkil etayotgan ayollar manfaatini himoya qilishga qaratilgan O`zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmonlari va hukumat qarorlari qabul qilinib, Davlat dasturlari ishlab chiqildi.

Jumladan, fikrimizni O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida fuqarolarning jinsi, millati, diniy e`tiqodidan qat`iy nazar teng huquqli ekanligi, 46-moddasida ayollar va erkaklar teng

huquqliligi, 117-moddasida saylash va saylanish huquqlarining kafolatlanganligi bevosita tasdiqlaydi.

Konstitutsiyaning mazkur moddalari ayollarga erkaklar bilan teng asosda ilm olish, kasb egallash, mehnat qilish, xizmat pillapoyalaridan ko'tarilish, ijtimoiy-siyosiy va madaniy sohalarda faoliyat ko'rsatish imkonini beradi. Hozirgi vaqtda respublikamiz ayollari erkaklar bir qatorda jamiyat hayotining turli jabxalarida, jumladan, ilgari faqat erkaklarga imtiyoz berilgan sohalarda ham samarali faoliyat olib bormoqdalar. Ammo shuni ta'kidlash joizki, ayollarning ijtimoiy ahvolini yaxshilash maqsadida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilgani va hozirda ham bu jarayon davom etayotganiga qaramay oila g'avhari bo'lmish ayollar tomonidan jinoyatlarning sodir etilishi juda ham ayanchli holdir.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat va Oila kodekslarida ayollarga alohida imtiyozlar berilib, huquqiy himoyaga olinganini, 1999-yil 14-aprelda "Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganini alohida ta'kidlash joiz. Muxtasar ifodalaganda, hozirgi paytda oila, onalik va bolalikning ijtimoiy muhofazasi hamda ayollar huquq va erkinliklarini ta'minlovchi 80 ga yaqin qonun va qonun osti hujjatlari mavjud.⁶²

Davlatimiz rahbari tomonidan xotin-qizlarni huquqlarini himoya qilish va ularni qo'llab-quvvatlash uchun qator unvonlar tasis etilyapti. Xususan O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasining vazifalari qaytadan

⁶² Uzhurriyat.uz. Shuhrat Dehqonov. Ayolga baxt bergan mamlakat. (Maqola)

ko`rib chiqildi, tuman (shahar) xotin-qizlar qo`mitalari tuzilmasida xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma`naviy-ahloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo`yicha mutaxassis lavozimini joriy etildi, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi va uning hududiy bo`linmalari, Xotin-qizlar va oilani qo`llab-quvvatlash jamoat fondi tashkil etildi, shuningdek, “Mo`tabar ayol” ko`krak nishoni ta`sis etildi., Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti laureatlarini qo`llab-quvvatlashning yangi tizimi yaratildi.

Davlatimiz rahbarining 2019-yil 1-maydan:

Ayollar mehnatini muayyan soha yoki kasblarda qo`llash bo`yicha taqiqlar bekor qilinadi;

Tavsiyaviy xarakterdagi ayollar sog`lig`iga salbiy ta`sir etishi mumkin bo`lgan soha yoki kasblar ro`yhati tasdiqlanadi;

Bola parvarishlash ta`tilining kamida uch oyi ota tomonidan foylanilgan taqdirda, ota yoki onadan biriga O`zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 234-moddasi tartibida qo`shimcha bir oy nafaqa to`lanadigan bola parvarishlash ta`tili beriladi.

Ikki yoshga to`lmagan farzandini tarbiyalovchi ota-onalarning biriga ularning ish paytidagi dam olish va ovqatlanish, bolani ovqatlanishi uchun beriladigan tanaffuslar hisobidan ish beruvchi bilan kelishilgan holda kun davomida foydalaniladigan tanaffus vaqtini belgilash huquqi beriladi;

Ayollar pensiya yoshiga to`lganligi yoki qonun hujjatlariga muvofiq yoshga doir davlat pensiyasini olish huquqi vujudga

kelganligi sababli ular bilan tuzilgan nomuayyan muddatli mehnat shartnomasini 60 yoshga to'lgunga qadar yoki muddatli mehnat tugagunga qadar ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilish taqiqlanadi;

Erkak va ayollar huquqlari tengligining buzilishi bilan bog'liq ishlarning sudlari ko'rib chiqilishida ayollarga advokatlar tomonidan ko'rsatiladigan yuridik xizmat uchun haq ularning hohshiga ko'ra davlat hisobidan qoplanadi.

2. O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, "Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi, Savdo-sanoat palatasi hamda Iqtisodiyot va Sanoat vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xotin-qizlar qo'mitalari ko'magida nodavlat notijorat tashkilot maqomiga ega bo'lgan xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin;

3. Quyidagilarni markazlarning asosiy vazifalari qilib belgilash tavsiya etiladi:

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan hamkorlikda uzoq muddat bola parvarishlash ta'tilida bo'lgan, mushkul iqtisodiy ahvolga tushgan ayollarni mehnat bozorida talab etilayotgan kasblar bo'yicha qayta tayyorlash va ularning ishga joylashishlari uchun ko'maklashish;

Tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini bildirgan ayollarni markazlarga jalb etish va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga ko'maklashish;

Ayollarning o'z biznesini tashkil etish va yuritish ko'nikmalarini shakllantirish, biznes g'oyalarini tayyorlashda konsultativ yordam berish, shu jumladan, loyiha biznes-rejasini tayyorlash, soliqqa tortishning turli rejimlarini tanlash va qo'llash, buxgalteriya hisobini yuritish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va boshqa yo'nalishlar bo'yicha o'qitishni tashkil qilish;

Zarur hollarda faoliyatini boshlayotgan tadbirkor xotin-qizlarga mahallalardagi bo'sh turgan binolardan joy ajratilishiga ko'maklashish;

Tadbirkor ayollarga va tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini bildirgan xotin-qizlarga o'z biznesini tashkil etishda zarur maslahatlar berish va amaliy yordam ko'rsatish, shu jumladan, ishonchli hamkorlikni topish, minitexnologiyalar va uskunalar sotib olishda ko'maklashish, ishlab chiqarilgan mahsulotning realizatsiya qilinishiga ko'maklashish;

Norasmiy faoliyat yuritayotgan hunarmand ayollarga ro'yhatidan o'tish "Hunarmand" uyushmasiga a'zo bo'lish orqali soliqlar va boshqa turdagi imtiyozlardan foydalanishda handa imtiyozli kredit olishda amaliy yordam ko'rsatish.

Bu chiqarilgan qonundan ko'rinib turibdiki, ayollarga bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan juda katta e'tabor berilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan e'tabor va g'amxo'rliklarga

qaramasdan bugungi kunda yurtimizda ayollar jinoyatchiligi ham tez-tez ko`zga tashlanib turmoqda.

O`tkazilgan tahlillar oxirgi yillarda sodir etilgan jinoyatlarda ayollar ishtiroki 2013-yilda 17.2 %ni, 2014-yilda 16.7 %ni 2015-yilda 16 %ni tashkil etganligini ko`rsatmoqda.⁶³ Keltirilgan raqamlar unchalik ko`pga o`xshamaydi, ammo har bir ayolning zimmasida oilasi, bolalari tarbiyasi, jamiyatimiz kelajagi turganligini ko`z oldimizga keltirsak, bu fikrning to`g`ri emasligiga ishonch hosil qilamiz.

Tarixiy yondashuv ayollar jinoyatchiligining tuzulishida salbiy tendensiyalar kuchayishining asosiy sababini, iqtisodiy tanazzul bilan bog`lab o`rganish lozimligini taqozo qiladi.

O`tgan asrning 20-30-yillarida ayollar jinoyatchiligi erkaklar jinoyatchiligidan faqat soni jihatdan emas, balki o`z xususiyatiga ko`ra ham farq qilishi aytilgan. Kriminologiya fani o`sha vaqtdayoq jinoyatchilikni o`ziga kasb qilib olgan ayollar mavjudligini tan olgan va ularni to`rtta guruhga: qotillar, abort qiluvchilar, qo`shmachilar, tan jarohati yetkazuvchilar guruhiga ajratgan.

Sobiq Sovet davlatida ikkinchi jahon urushidan keying yillarda ayollar jinoyatchiligining miqdor ko`rsatgichi eng yuqori bo`lgan, mahkumlar orasida ayollar ko`pchilikni tashkil qilgan. 50-yillarda esa ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar sonining kamayganligi va o`tgan arning 80-yillarining oxirigacha bu ko`rsatgichning

⁶³ Ikromov SH.T. Ayollar jinoyatchiligining sabab va sharoitlari hamda profilaktikasi. (o`quv qo`llanma), - T., 2016. 4-b.

o'zgarmaganligi kuzatiladi. 90-yillardan boshlab ayollar jinoyatining o'sib borayotganligi tashvishlanarli holdir. Nima bo'lgan taqdirda ham, ayollarimmizning jinoyat sodir etishlari nafaqat o'zlari uchun zarar, balki shu oilada tarbiyalanayotgan bolalar tarbiyasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Chunki onasi jinoyatchi bo'lgan oila tanazzulga uchraydi, bolalari nazoratsiz qoladi. Tadqiqotlardan ma'lumki, nazoratsiz qolgan bolalarning voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga "hissa" qo'shish darajasi yuqori bo'ladi.

Bugungi kunda davlatimiz rahbar tomonidan ayollar uchun berilayotgan e'tibor berilmoqda. Shunday bo'lishiga qaramay dunyo jamoatchilik e'tiborida turadigan Amerika ovozi nashri muhbiri mariana Kemp O'zbekistonda yashayotgan ayollar haqida bergan maqolasida shunday so'zlarni aytib o'tadi: "Markaziy Osiyo xotin-qizlari azaldan ezilgan, shahsiyati va taqdirini o'zgalar ixtiyoriga topshirgan, ham oilada, ham jamoatchilikda tahqirlangan ayollar. Kommunizmga ishonib, parangi tashlagan, istiqloлга umid bog'lab, erkinlik izlagan ayollar. Endilikda esa bozor-u dalalarda tirikchilik tashvishlari bilan band, ham hukumat, ham jamoatchilik nazaridan chetda qolgan ayollar".⁶⁴

Bu xato fikr dunyo davlatlari tomonidan bugungi kunda O'zbekiston va butun Markaziy Osiyo davlatlarida istiqomat qilayotgan ayollarga berilgan tarif ekanligini e'tiborga olsak, bu noto'g'ri fikr. Vaholanki, bugungi O'zbekiston ayoli jamiyatning eng ilg'or qatlamlaridan biri. Yurtimiz fuqarolarining salkam 52 %ni ayollar tashkil qiladi. 2017-yilgi Xalqaro oila kuni munosabati bilan O'zbekisto Xotin-qizlar

⁶⁴ [https:// www.amerikaovozi.com](https://www.amerikaovozi.com) O'zbekiston ayollari – ana`ana va tarix iskanjasidagi hayot. 2007.7-mart

qo`mitasi, O`zbekiston velosport federatsiyasi va Birlashgan Millatlar tashkilotining aholishunoslik bo`yicha jamg`armasi (YuNFPA) xotin-qizlar orasida sog`lom turmush tarzini targ`ib qilish, ayollarning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish, ularning ta`lim olishga, sport tadbirlarida ishtirok etishga va reproduktiv salomatlik xizmatlaridan foydalanishga doir huquqlarini ilgari surish maqsadida Xotin-qizlar qo`mitasi Velomarafon o`tkazishda hamkorlik qildi. Marafonda qariyb 1500 nafar ayolllar qatnashdi.

2017-yildan boshlab O`zbekiston 15-may Oila kuni sifatida nishonlanib kelinmoqda.

Garchi O`zbekistonda boshlang`ich talimda gender balansiga erishilgan bo`lsada, ammo hanuzgacha oliy talim sohasida tehsil olayotgan ayollar va erkaklar soni o`rtasida tafovut mavjud. BMTTD tomonidan ishlab chiqilgan “O`zbekiston ta`lim tizimida ayol va erkaklar o`rtasida mavjud bo`lgan tafovutlar” ifografik oliy talim sohasida tehsil olayotgan ayollar va erkaklar soni o`rtasidagi nisbatni aks ettiradi hamda uning milliy mehnat bozorida qanday ko`rinish kasb etishini namoyon qiladi.

Davlatimiz rahbarining Xotin-qizlarni qo`llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to`g`risidagi farmoni:

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o`z qobiliyat va imkoniyatlarini ro`yobga chiqarish uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlarga so`zsiz rioya qilinishini ta`minlash,

onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oilka institutini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, ushbu sohadagi ishlarning holatini xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular bilan maqsadli ishlarni tashkil qilish oilalarda ma'naviy-ahloqiy muhitni mustahkamlash va sog'lomlashtirishning samarali mexanizmlarini yaratishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjudligidan dalolat beradi. Jumladan, birinchidan, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir iyyimoit vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarni manzilli qo'llab-quvvatlash tizimi mavjud emas, ishsiz ijtimoiy faol bo'lmagan xotin-qizlar bilan yakka tartibda ish olib boorish amaliyotini yo'lga qo'yilmagan, xotin-qizlar o'rtasida bandlikka ko'maklashish va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha faoliyat samarasiz tashkil qilingan. Ikkinchidan, oshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, zamonaviy namunali oilani shakllantirish, uning ma'naviy-ahloqiy negizlari va ana'naviy oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash bo'yicha maqsadli ishlar olib borilmayapti, erta nikohlarning, oilalardagi nizoli holatlar va ajralishlarning oldini olish bo'yicha choralarning samaradorligi past darajada qolmoqda; uchinchidan, xotin-qizlarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish borasidagi faoliyat yetarli darajada tashkil etilmagan, onalar kasalligi va perinatal kaslliklar profilaktikasi va ularning oldini olish bo'yicha samarali tizim, ayniqsa, chekka qishloq hududlarida mavjud emas; to'rtinchidan, xotin-qizlar o'rtasidagi huquqbuzarlik profilaktikasi va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha samarali choralar ko'rilmayapti, xotin-qizlarning huquqiy madaniyatini oshirish, ularga yuridik maslahatlar berish mexanizmi

zamon talablariga javob bermaydi; beshinchidan, xotin-qizlar qo'mitalarining keng ko'lamli vazifalari zarur vakolatlarning yo'qligi va tashkiliy-shtat birliklarning yetishmasligi sharoitida xotin-qizlarning eng muhim muommolarini hal etish borasida ularning kuch va imkoniyatlarini to'liq safarbar etish imkoniyatini bermayapti; oltinchidan, Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi tashkiliy bo'ysunuvining noaniqligi va zarur moliyalashtirish manbalarining mavjud emasligi, oila muommolarini o'rganish hamda ularning bartaraf etish yuzasidan amaliy, ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish bo'yicha unga yuklatilgan vazifalarning samarali bajarilishiga to'sqinlik qilmoqda, yetinchidan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oilani mustahkamlash, nizoli holatlar va ajralishlarning oldini olish sohasida kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo'yicha ishlar tashkil qiloinmagan. Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish maqsadida, shuningdek, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan vazifalarni inobatga olgan holda:

1. Quyidagilarni O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari etib belgilansin: birinchidan, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligi oshirish;

2. Ikkinchidan, xotin-qizlarning muommolarini o'z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarning, shu jumladan, nogironligi bo'lgan ayollarning manzili ro'yhatlarini tuzish, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish; uchinchidan, xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, mehnat sharoitlarini
3. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatini muofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2018-yil 1-apreldan fuqarolar yig'inlarining diniy ma'rifat va ma'naviy-ahloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisi lavozimi o'rniga tegishli shtat birliklarini tuman (shahar) xotin-qizlar qo'mitalari tuzilmasiga o'tkazilgan hamda mahalliy budjet mablag'lari hisoblaridan moliyalashtirish tartibini saqlagan holda xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarini mustahkamlash bo'yicha mutaxassis (keying o'rinlarda – mutaxassis deb yuritiladi) lavozimini joriy etish bo'yicha taklifiga rozilik berilsin.

Belgilansinki,

Mutaxassis lavozimi har bir fuqarolar yig'inida 1 tadan, oilalar soni 2000 va undan ortiq bo'lgan fuqarolar yig'inlarida esa 2 tadan joriy etiladi;

Mutaxassis fuqarolar yig'ini binosida joylashadi, lavozimi bo'yicha fuqarolar yig'ini kengashining tarkibiga kiradi va fuqarolar yig'ini kengashining tarkibiga kiradi va fuqarolar

yig'ini bilan yaqin hamkorlikda o'z faoliyatini amalga oshiradi. O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi bilan birgalikda 2018-yilning 1-apreliga qadar fuqarolar yig'inlarining diniy ma'rifat va ma'naviy-ahloqiy tarbiya masalalari bo'yicha yangidan kiritilgan mutaxassis lavozimlariga yetarli bilim, darajasiga, yuksak ma'naviy va ahloqiy fazilatlariga ega bo'lgan, o'ziga yuklatilgan vazifalarini lozim darajada bajara oladigan shahslarni tayinlash choralarini ko'rsin.

4. Quyidagilar:

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining tashkiliy tuzilmasiga muvofiq; O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi markaziy apparatining tuzilmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, viloyat markazlari bo'lgan shaharlar, tumanlar xotin-qizlar qo'mitalari ijro apparatlari hodimlarining cheklangan soniga nisbatan toifalangan viloyat markazlari bo'lgan shaharlar, tumanlar ro'yhati maqullansin.

Belgilab qo'yilinki, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi raislarining birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari maqomi, mehnatga haq to'lash shartlari, moddiy ta'minoti, tabiiy va transport xizmati ko'rsatish bo'yicha tegishli vazirning birinchi o'rinbosari va vazir o'rinbosarlariga tenglashtiriladi;

5. O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi markaziy apparati xodimlariga nisbatan, istisno, tariqasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududiy davlat boshqaruvi organlari xodimlari

faoliyatini yanada takomillashtirish va moddiy ragʻbatlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisi”dagi 2017-yil 9-yanvardagi PQ-2722-son qarorining 1-bandida belgilangan har oylik ustamalar qoʻllaniladi.

6. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi va uning hududiy boʻlinmalari Oʻzbekiston Xotin-qizlar qoʻmitasi qopshidagi Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazi negizida tashkil etilsin hamda quyidagilar uning asosiy vazifalari etib belgilansin:

Oila institutini mustahkamlash boʻyicha, eng avvalo, “Sogʻlom oil – sogʻlom jamiyat” konseptual gʻoyasini hayotga tatbiq etishga yoʻnaltirilgan yagona davlat siyosatini olib boorish, bu sohada normative-huquqiy bazani, yanada takomillashtirish boʻyicha takliflar ishlab chiqish; oilaning reproduktiv salomatligi va demografik rivojlanishini, uning farovonligi va xotirjamligini osjirish masalalari kompleks oʻrganishni tashkil etish, mazkur yoʻnalishlar boʻyicha uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish, samarali tatbiq etish, zamonaviy oilani rivojlantirish, oilaning ichki munosabatlari, shahslararo munosabatlarni, boy madaniy tarixiy meros va anaʼnaviy oilaviy qadriyatlar muommolari boʻyicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni oʻtkazish, ular asosida oila institutini mustahkamllash, yoshlarni oilaviy ajrashishlarning oldini olish boʻyicha takliflarni ishlab chiqish va amalga oshirish, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni, er-xotin, ota-ona va farzandlar, er-xotin va ularning ota-onalari oʻrtasidagi munosabatlarni tahlil qilish asosida zamonaviy namunali

oilaning mezonlarini belgilash, shuningdek, zamonaviy oilaning namunali shaklini hamda “Oila jamiyat va davlat himoyasida” konstitutsiyaviy prinsipini keng targʻib qilish va jamiyatga singdirish ishlarini olib boorish; davlat organlari, xotin-qizlar qoʻmitalari va boshqa jamoat tashkilotlari bilan birgalikda notinch va muommoli oilalarni aniqlash va ularning manzili roʻyhatlarini tuzish, maʼnaviy-ahloqiy muhitni sogʻlomlashtirish, nizoli holatlarning oldini olish, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va milliy mintalitetga zid boʻlgan turli yot xavf-xatarlarga qarshi turish maqsadida ular bilan toʻgʻridan-toʻgʻri aloqa oʻrnatish; oila-nikoh munosabatlari sohasida amaliyotni oʻrganish va tajriba almashish borasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot muassalari bilan hamkorlikni amalga oshirish.

Har bir millat oʻz ayolini ulugʻlasa, uning oʻzi ham shunchalik ulugʻlanadi. Davlat ayolning farovon turmush kechirish shart-sharoitini, uning erkin hayoti, huquq va manfaatlari, or-nomusini himoyasini qanchalik keng yaratsa, ayol iftixori, uning qadri, kelajak oldidagi maʼsulligi uchun shuncha keng imkoniyat paydo boʻladi.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, ayolga baxt bergan mamlakat yuksak marralarni zabt etaveradi, gullab-yashnayveradi, taraqqiy etaveradi. Bu borada yurtimizda ayollarga berilayotgan eʼtibor boshqa mamlakatda boʻlayotgan oʻzgarishlarga namuna qilib koʻrsatish mumkin. Yutboshimiz tomonidan eʼlon qilingan beshta tashabbusda

ham bu e`tibor o`z aksini topgan. Shu kunlarda bu tashabbusning amalda ijrosini ta`minlash borasida ko`p ishlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasi o`laroq 28-may kuni yurtimizga Suryaga ketib qolgan terrorchilarning oila-a`zolari yani ayollar, bolalarning 156 nafari qaytarib olib kelindi. Ularni tinch hayotga moslashtirish va ish bilan ta`minlashni yurtimiz rahbariyati o`z oldiga maqsad qilib qo`ydilar. Bu misollar ham bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bir ko`rinishi misolida olishimiz mumkin.

Xulosa

Xulosa shuku, XVI-XIX asrlarda vatanimiz hududidagi xalqlar hududiy tarqoqlik, xo`jalik va iqtisodiy tushkunlik holatida bo`lsalarda fan va madaniyat taraqqiyotida bir qator ijobiy yutuqlar va salmoqli muvaffaqiyatlarga erishdilar.

Bu bilan ular jahon taraqqiyoti va sivilizatsiyasiga o`z hissalarini qo`shdilar. Ammo XVII-XIX asrlarda O`rta Osiyo va undagi davlatlar jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida orqada qolaverdilar. Lekin bu borada har uchala xonlik hukmdorlari tomonidan ilm-ma`rifatga e`tibor berilgan. Shunday hukmdorlardan biri Qo`qon xonlari Amir Umarxon va uning o`g`li Muhammad Alixonlar davrida Qo`qon xonligida ilm-fan gullab-yashnadi. Xususan Umarxon davrini O`sha davrda yashab o`tgan tarixchi va shoi Fazliy Namongoniy eng yaxshi podsholiklardan biri sifatida “Majmuat ush-shuaro” asarida qayd qilib o`ygan. Amir Umarxon 35 yillik umri davomida madaniyat va adabiyot rivojiga katta havas bilan qarab, o`z poytaxti bo`lgan Qo`qon shahrida kuchli adabiy muhit tashkil qiladi. Yuzdan ortiq shoiru, adiblar, xofizu honandalar, kulgi, askiya ustalari, xattotlar uning homiyligida o`z istedodlarini namoyon qilganlar.⁶⁵ Uning hukmronligi davrida Qo`qon xonligi madaniy va adabiy muhitida kuchli yangilanish bo`ldi. U Qo`qon adabiy markazining asoschisi, tashkilotchisi va homiysi bo`ldi. Farg`ona uning markazi Qo`qon shahri shoiru-shuarolar markaziga aylandi. Unda Husayn Boyqaro va Navoiy davri Hirot adabiy muhiti ana`nalari tiklangandek bo`ldi.

⁶⁵ Orzibekov R. O`zbek adabiyoti tarixi, T:, 2006. 165-b.

Bu davrda ya`ni Umarxon davrida Qo`qon xonligida vujudga kelgan bunday ajoyib adabiy muhitning barpo bo`lishida malika Nodirabegimning ham xizmatlari beqiyos edi. Xonlik taraqqiyotida bu davrda hukmdorlar yonida yelkama-yelka birgalikda faoliyat yuritgan malikalarning ham xizmatlari beqiyos darajada katta bo`lgan. Xususan malika Nodirabegimning o`rni katta. Turmush o`rtog`ining bevaqt o`limidan keyin yosh bo`la turib taxtga o`tirgan hukmdosr o`g`li Muhammad Alixonga davlat ishlarida unga ko`mak beradi. Mamlakatda juda ko`plab xayrli ishlarni olib boradi. O`z mablag`lari xisobidan madrasa, masjid, qorixonalarni tashkil qiladi. Xalqni ilm-ma`rifatli qilish uchun sahovatpeshalik faoliyatlarini olib boradi. Ayniqsa, bu borada xonlikda yashayotgan xotin-qizlarni o`zi qo`llab-quvvatlab ularni huquqlarini tiklashga va kamsitilishlariga yo`l qo`ymasliklariga harakat qildi. Ayniqsa malika Nodirabegim davlat hukmdoriga katta e`tibor berib uni Xudoning yerdagi vakili deya ataydi. O`z fuqarolariga xukmdor ularni yashashlari uchun yaxshi ma`sul ekanligini ta`kidlab o`tadi. Qo`qon xonligi ayqnisa, O`rta Osiyoda mavjud bo`lgan Buxoro amirligi va Xiva xonliklaridan o`zining adabiy muhitida shoiralari ko`pligi bilan ajralib turadi. Shoiralarning bu davrda bunday ko`p bo`lishliklari xonlikda she`riyatga alohida e`tibor bilan qaraganliklaridan bilinib turadi. Bu davrda Uvaysiy, Nozima Xonim, Anbar Otin, Xayriniso, Muazzamxon, Dilshod Barno, Zinnat, Nozuk Xonim va boshqa ko`plab is`tedodli shoiralar bu davrda salmoqli ijod qiladilar. Xonlikda o`ziga xos adabiy muhit yaratadilar. Bu oqila ayollar o`zlarining uylarida maktablar ochib, qizlarni xat savodli qilishga o`zlarininig xissalarini qo`shadilar. Har uchala xonlikda ham ayollarning jamiyat hayotida tutgan

mavqelari deyarli bir xilda bo'lgan. Qo`qon xonligida ayollarning ijtimoiy hayotiga oqsoqollar tomonidan saylab qo'yilgan kayvoni rahbarlik qilgan. Kayvoni lavozimiga mahallada katta hurmat qozongan va o'zbek turmush tarzini, urf-odat va an'analarini butun nozikligi bilan biladigan, serg'ayrat, faol, tashkilotchilik qobiliyatiga ega, odob-ahloqi bilan obro-e'tabor qozongan ayol loyiq bo'lgan. Unga xodima yoki dasturxonchi qarashgan. Bu vazifaga ko'pincha beva xotinlarni saylagalar, chunki ularning bo'sh vaqlari ko'p bo'lgan hamda bu ish ularga qo'shimcha daromad keltirgan.⁶⁶ Jinoyat ishlarida ham ayollarning mavqelari erkaklarnikidan past bo'lgan. Qozilar sudida oilaviy masalar, xotin-qizlar huquqi masalalari ham shariat qonunlari asosida hal etiladi. Shariat bo'yicha xotin-qizlarning huquqlari cheklanganligi, erlarning esa huquqiy jihatdan ustunligi qozilar sudida o'z ta'sirini o'tkazardi. Qozilar sudi muhokamasi garchi oshkora hisoblansa-da, amalda bunday emasdi. Shariatning guvohlik masalasida qoidalaridan yana biri bu erkaklar tomonidan berilgan guvohlikning ayollarnikiga nisbatan, afzal hisoblanishidadir. Shariatda ikkita ayol tomonidan beriladigan guvohlik, bitta erkak tomonidan beriladigan guvohlikka tenglashtirilgan.

Jinoyat ishlar bo'yicha ayollar guvohlikka chaqirilmagan va ular tomonidan beriladigan guvohlik e'tiborli hisoblanmagan. Ayollar faqat oldi-berdi, ayniqsa, oilaviy masalardagina guvohlik berishlari mumkin bo'lgan. Xonlikda ayollarning kamsitilishi, erlari tomonidan qilinayotgan zo'ravonliklar, ayollarni bu davrda qiynalib

⁶⁶ <https://navoi.mahalla.kengashi>

yashayotganliklari o`sha davr shoiralari ijodida o`z aksini topadi. Ota-onaga uchun qiz farzandlarning o`rni bo`lmagan. Qizlarning inon ixtiyorlari turmushga chiqqunlariga qadar ota-onalarining ixtiyorida bo`lgan. Turmushga chiqayotgan qizlar qayliqlari kim ekanligini va necha yoshda ekanligini to`y oqshomida bilib olganlar. Ayrim hollarda ota-onalar qizlarini biron-bir eshongami yoki otasidan ham katta bir boygami berib yuborganlar. Bunday holatlarda esa ayollar erlarining uchinchi yoki to`rtinchi xotini xisoblanganlar. Agar ayollar erlariga yoqmay qolsalar, ularni bolalari bilan ko`chaga haydab yuborganlar yoki ularni ustiga yana bitta xotin olganlar. Bunday holatlarda ayollar oilada qiynalib yashaganlar. Bunday ayanchli hayot tarzini o`sha davrda yashab o`tgan shoira ayollardan biri shoira Saida bibi shunday izohlab o`tgan: ““Zolim erkaklardan faryod” she`ri shu qadar samimiy, shu qadar dardliki, har qanday yuraklarni larzaga solib yuboradi”.⁶⁷ Bunday xo`rlik-u kamsitilishlarga qaramasdan xonliklar davrida ham ayollar o`zlarining go`zalliklari va nafosatlarini saqlab qolishga intilganlar. Xonliklar davrida ayollarning orzu-umidlari vatanimiz mustaqillikga erishganidan so`ng amalga oshdi. Bugungi kunda yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan xotin-qizlar masalasi davlat ahamiyati darajasidagi masala deya e`tirof etilmoqda. Yurtimizda ayollar yurtimiz aholisining 52 %ni tashkil qilayotganligi va jamiyat rivojining har bir jabhasida o`zlarining o`rinlarini topib borayotganligi quvonarli bir holdir. 2017-yildan buyon 15-may “Oila kuni” sifatida nishonlanib kelinmoqda. Bu ham ayollar va ularga berilayotgan e`tiborning bir ko`rinishidir. Yuqorida keltirilgan ilmiy

⁶⁷ To`xtasin Jalolov. O`zbek shoiralari. 142-b.

dallilardan kelib chiqib, shuni xulosa qilish mumkinki, xonliklar davrida xotin-qizlarning haq-huquqlarini ularni talim olishlari uchun imkoniyat yaratadigan hukmdorlar va malikalar ham hayot kechirganlar. Ular tomonidan amalga oshirilgan bunday islohotlar bugungi avlod uchun namuna qilib ko`rsatish mumkin. Bu esa kelgusi avlodlar uchun bir dars misolida bo`ladi.

Foydalanilagan adabiyotlar ro'yhati

1. Inson baxt uchun tug'iladi: O'zbekiston Prezidentining hikmatli so'zlaridan (tuzuvchilar:D.G'aniyev)T.Sharq.2000
- 2.Usmonov Y Jannat bog'I, "Farg'ona nashriyoti" 1995
- 3.Sodiqov X va boshqalar, O'zbekistonning yangi tarixi T:, "Sharq"2000
4. Alimova D.A Tarix shohidligi va saboqlari, T:,2000
5. Ahmadjonov F.A. Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoda, T:,2003
6. Rajabov Q Farg'ona vodiysidagi istilochilik harakati: mohiyati va asosiy rivojlanish bosqichlari, T:,2015
7. Fozilbek Otabek o'g'li Dukchi Eshon voqeasi, "Cho'lpon", T:,1992
- 8.Jo'rayev M., Nurullin R.va boshqalar. O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – T. : «Sharq», 2000.
- 9.Jo'rayev N., Karimov Sh. O'zbekiston tarixi. 2-jild. – T. : «Sharq», 2010.
10. Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. – T. :«O'zbekiston», 2001.
- 11.Murtazayeva R. va boshqalar tahriri ostida. O'zbekiston tarixi. – T. :2003.
12. Rajabova R., Karimov R. va boshqalar. O'zbekiston tarixi (1917-1993-yillar). – T. :«O'qituvchi», 1994.
13. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. – T.:2005.
14. Usmonov Q., Sodiqov M. O'zbekiston tarixi (1917-1991). – T. : «Sharq», 2013.
15. Shamsitdinov R., Karimov Sh. O'zbekiston tarixidan materiallar. – Andijon. : 2004.

16. Shamsitdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 2-jild. –T.:«Sharq», 2010.
17. Shamsitdinov R., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. –T.:«Sharq», 2013.
- 18H. Bobobekov., Qo`qon xonligining qisqacha tarixi, “Turon tarixi” jurnali, To`plam, N-2, T:, “Fan”2008.
- 19.Sh. Yusupov, Buni umr derlar..., Jamiyat va boshqaruv, 2002., 1-son.
20. I. Alimov, Qo`qon xonligi madrasa, maktablar tarixi, T, “Fan”, 2017.
21. Mirzo Olim Mahdum Xoji, Tarixi Turkiton, T:, “Yangi asr avlodi” 2008.
22. Muhammad Aziz Marg`iloniy, Tarixi Aziziy, T:, “Ma`naviyat”, 2008.
23. Sh.Vohidov Qo`qon xonligida mansab va unvonlar, T:, “Sharq yulduzi”, 1995.
24. Orzibekov R. O`zbek adabiyoti tarixi, T:, 2006
25. Bobobekov X. Qo`qon xonligi tarixi. T.:Fan,1996.
- 26.Normatova S.N. Qo`qon xonligida madaniy hayot va terixnavislik. BMI. T.:, 2014,
27. O`zbekiston tarixi. G.R.Muqimova, N.N.Xabibullayev va boshqalar tahriri ostida. T:, “O`qituvchi”, 1994-yil,
28. Ilmiy ahborotnoma 2016-yil 4-son (98)
29. J.Toshquluv. O`zbek xalqlari siyosiy-huquqiy fikrlari tarixidan. T.:”O`zbekiston”. 1996,-5-b.

30. X.Boboyev. O`zbek davlatchiligi tarixi. 2-kitob. T.: “Fan va texnologiya”. 2009